

Muallif: I.Boltaeva
Yaratilgan: Angren 2005 yil
Kategoriya: Ta'lim
Bo'lim: O'zbek tili va adbiyoti
Institut: Toshkent viloyat davlat pedagogika instituti
Fakul'tet: Filologiya
Kafedra: «O'zbek adabiyoti va o'qitish metodikasi»
Elektron fayl turi: RAR
Elektron fayl hajmi: kb

Annatotsiya

Ushbu ma'ruzalar matni Respublikamizdagi pedagogika institutlarining o'zbek filologiya fakul'tetlari bakalavr bosqichi uchun o'tiladigan «XX asr o'zbek adabiyoti tarixi» fanidan tayyorlangan ma'ruza matnlaridan tashkil topgan. Ma'ruza matnlari mazkur fan bo'yicha tuzilgan dastur asosida yaratilgan bo'lib, unda XX asr o'zbek adabiyoti tarixi taraqqiyotiga hissa qo'shgan iste'dodli ijodkorlarimiz hayoti va ijodi haqida ma'lumot beriladi. Ularning ijodi imkon qadar tahlil etilib, ma'ruza matnlari bilan birga, unga tegishli badiiy va ilmiy adabiyotlar, mavzuga oid tayanch tushuncha va topshiriqlar tavsiya etilgan.

Mazkur ma'ruza matnlaridan Oliy va o'rta maxsus bilim yurtlari o'qituvchilari va talabalari foydalanishi mumkin.

MUNDARIJA:

Gafur Gulom hayoti va ijodi	3
Oybek hayoti va ijodi.	8
Abdulla Qahhor hayoti va ijodi.	13
Hamid Olimjon hayoti va ijodi.	18
Mirtemir hayoti va ijodi	21
Zulfiya hayoti va ijodi.	26
Said Ahmad hayoti va ijodi.	31
Asqad Muxtor hayoti va ijodi	36
Mirmuhsin hayoti va ijodi.	42
Shukrullo hayoti va ijodi.	46
Odil Yoqubov hayoti va ijodi	49
Pirimqul Qodirov hayoti va ijodi	54
Erkin Vohidov hayoti va ijodi	59

Abdulla Oripov hayoti va ijodi	65
Shukur Xolmirzaev hayoti va ijodi.	.71
O'tkir Hoshimov hayoti va ijodi	75
Omon Matjon hayoti va ijodi	.81
Rauf Parfi hayoti va ijodi	87
Toʻlay Murod hayoti va ijodi	90
Muhammad Yusuf hayoti va ijodi	.96

***Mahmud Qoshg'ariy nomidagi Toshkent viloyat Davlat pedagogika instituti Ilmiy
Kengashining 2004 yil, 29 aprel, №9 sonli majlisi bayonnomasi qarori bilan nashrga tavsiya
etilgan.***

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQTA'LIMI VAZIRLIGI
MAHMUD QOSHGARIY NOMIDAGI TOSHKENT VILOYaT DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

XX ASR O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI

(ma'ruzalar matni)

«ADABIYOT VA UNI O'QITISH METODIKASI»

KAFEDRASI

Tuzuvchi : filologiya fanlari nomzodi *I.Boltaeva*

TOSHKENT – 2004.

MUNDARIJA:

Gafur Gulom hayoti va ijodi	3
Oybek hayoti va ijodi.	8
Abdulla Qahhor hayoti va ijodi.	13
Hamid Olimjon hayoti va ijodi.	18
Mirtemir hayoti va ijodi	21
Zulfiya hayoti va ijodi.	26
Said Ahmad hayoti va ijodi.	31
Asqad Muxtor hayoti va ijodi	36
Mirmuhsin hayoti va ijodi.	42
Shukrullo hayoti va ijodi.	46
Odil Yoqubov hayoti va ijodi	49
Pirimqul Qodirov hayoti va ijodi	54
Erkin Vohidov hayoti va ijodi	59
Abdulla Oripov hayoti va ijodi	65
Shukur Xolmirzaev hayoti va ijodi.	71
O'tkir Hoshimov hayoti va ijodi	75
Omon Matjon hayoti va ijodi	81
Rauf Parfi hayoti va ijodi	87
To²ay Murod hayoti va ijodi	90
Muhammad Yusuf hayoti va ijodi	96

MAVZU: GAFUR GULOM HAYOTI VA IJODI

(1903-1966)

R E J A:

- 1.Gafur Gulom hayot yo'li haqida.**
- 2.Gafur Gulom va Sharq mumtoz adabiyoti.**
- 3.Gafur Gulom hikoya va qissalari.**
- 4.Gafur Gulom tarjimalari.**
- 5.Gafur Gulom-adabiyotshunos.**

ADABIYO TLAR:

- 1.Gafur Gulom . Asarlar. O'n ikki tomlik. T., «Fan», 1970-1978y.**
- 2.H.Yoqubov. Saylanma.Adabiy portretlar. Gafur Gulom. T.,
G.Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984 yil.**
- 3.S.Mamajonov. Gafur Gulom prozasi. T., «Fan», 1966y.**
- 4.Said Ahmad. Nazm chorrahasida. T., 1982 y.**
- 5.S.Mamajonov. Uslub jilolari. T., Gafur Gulom nomidagi
Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972 y.**
- 6.Gafur Gulomning badiiy olami. T., «Fan», 1984 y.**
- 7.Gafur Gulom va davr. Gafur Gulomning yangi o'zbek adabiyoti
taraqqiyotidagi o'rni mavzusidagi ilmiy konferentsiya
materiallari. Mirzo Ulu²bek nomidagi O'zbekiston milliy
universiteti. T., 2003 y.**
- 8.Z.Hamidov. Gafur Gulom prozasi leksikasi. T., 2003 y.**
- 9.Gafur Gulom-buyuk adib. (Maqolalar to'plami. Urganch Davlat
universiteti). Urganch., 2003 y.**
- 10.O'zbek tili va adabiyoti . Toshkent., O'z.RFA. «Fan» nashriyoti, 2003 y,
2-son. (Baxtiyor Nazarov, Ergash Ochilov, Suvon Meli, Rahmatilla
Barakaev, Sherali Turdiev, Otabek Jo'raboev va boshqalarning maqolalari)
G. Gulom tavalludining 100 yilligi munosabati bilan.**
- 11.Gafur Gulom zamondoshlari xotirasida. T., 2003 yil.**

12. Begali Qosimov. Gafur Gulom mahorati. T., «Fan», 2003 yil.

13. Naim Karimov. Gafur Gulom. T., 2003 yil.

Gafur Gulom o'zbek adabiyotining iste'dodli ijodkori. U adabiyotimizni turli janrlar bilan boyitdi. She'riyatda, publitsistika va fel'etonchilikda, hajviy hikoya va yumoristik qissachilikda, hamda tarjimachilikda o'zining butun salohiyatini ko'rsatgan yirik namoyondadir.

Gafur Gulom 1903 yil 10 maydi Toshkent shahrining Qo'r²ontegi mahallasida dehqon oilasida dunyoga kelgan. Uning otasi Gulom Mirza Orif o'²li va onasi Toshbibiy Yusuf qizi o'qimishli, zehnli, adabiyotni sevadigan, fors tilinig bilimdoni bo'lishgan. Otasi tatar, rus, ozarbayjon tillarini ham yaxshi bilgan .

Gafur Gulom yoshligidan bilimga chanqoq yigit bo'lgan. Navoiy, Sa'diy, Hofiz, Fuzuliy asarlarini sevib o'qigan. Afsuski, 1912 yilda otasidan, 1918 yilda esa onasidan erta judo bo'ldi. Oilani boqish tashvishi tufayli Oliy maktablarda o'qiy olmaydi. Sakkiz oylik muallimlar tayyorlash kursinigina bitkazadi va mustaqil o'qish orqali zamonasining il²or ziyolisi darajasiga ko'tariladi. Bir vaqtning o'zida ikkita maktabga mudirlik qildi, shahar maorifida ishladi. Turli gazeta- jurnallarda adabiy xodim, mudir, bosh muharrir o'rinbosari vazifalarida ishladi.

Gafur Gulomning ijodga kirib kelishida Sharq she'riyati-Navoiy, Bobur, Mashrab, Muqimiy, Hofiz, Shayx Sa'diy, Firdavsiy, Rudakiy, Umar Hayyom, Bedil kabilarning ijodlari juda katta ta'sir ko'rsatdi. Keyinchalik bu ulu² allomalarning asarlarini Gafur Gulom o'zbek tiliga tarjima qildi.

Gafur Gulomning ilk ijodining debochasi 1923 yilda matbuotda e'lon qilingan "Go'zallik nimada?" she'ridir.

Shoirning 1931 yilda "Dinamo", 1932 yilda "Tirik qo'shiqlar" she'riy to'plamlari chop etildi. Nasriy asarlari-qis- salari "Netay" 1930 yilda, "Tirilgan murda" 1934 yilda, "Shum bola" , "Yodgor" qissalari yaratildi.

Ballada janrida “Ikki vasiqa”, “To’y” asarlarini yozdi. Gafur Gulom urush yillarida samarali ijod qildi. “Kuzatish”, “Soʻinish”, “Qish”, “Xotin” “Bizning koʻchada ham bayram boʻlajak” , “Suv va nur” sheʼrlari ayni shu davrning mahsulidir.

Gafur Gulomning barchaga maʼlum va mashhur “Sen etim emassan” sheʼri 1941 yil 7 dekabrda kuchli ichki tuʼyon bilan yozilgan. Ushbu sheʼrni shoir qayta-qayta ishlov berib, tahrirlar kiritib, shundan keyingina eng soʻnggi poetik matnini yaratgan:

Etimlik nimadir-
Bizlardan soʻra.
Oʻninchi yillarning
Sargardonligi;
Isitma aralash
Qoʻrqinch tush kabi
Xayol koʻzgusidan
Oʻchmaydi sira. . .

Maʼlumki, ushbu sheʼr ikkinchi jahon urushi ayni dahshatli tus olgan bir paytda, beomon, qonli qirʼin olovi ostida qolgan belorus, ukrain va rus tuproʻida ota-onasiz etim boʻlib qolgan murʼak goʻdaklarning Oʻzbekiston tuproʻiga olib kelinishi davrida yozilgan. Davr, muhit, vaziyat nuqtai-nazaridan bu sheʼr dard avjida qilingan rohatbaxsh malhamga oʻxshaydi. Uning markazida mehribon ota, faylasuf shoir, bebaho homiy, rahmdil inson va ishonchli qoʻriqchi obrazi- shoir “Men” i turadi. Shu bois uning mehrga yoʻʻrilgan yupanchli soʻzi, har bir nigohi va nafasi, dalda beruvchi xatti-harakati oʻta samimiy jaranglaydi, taʼsirchan kechadi va titrab turgan tilaklarga orom baʼishlaydi :

**Men etim o'tganman,
Oh u etimlik. . .
Voy bechora jonim,
Desam arziydi.
Boshimni silashga
Bir mehribon qo'l,
Bir o'z shirin so'z
Nondek arzanda
Men odam edim-ku. . .
Inson farzandi. . .**

Misralarda shoirning o'z boshidan kechirgan etimlik yillarining dahshatli mashaqqatlari lirik chekinish orqali ochib berilgan. Shoir o'z xotiralarini izchil kuchayib boruvchi poetik pafos bilan she'rxonga etkazishga, uni o'zining dardli xotiralari bilan oshno etishga muvaffaq bo'lgan.

Gafur Gulom jo'shqin va tinimsiz ilhom bilan ijod qiluvchi ijodkor bo'lsa ham, biroq u har bir asariga, ularning har bir satri va har so'ziga o'ta mas'uliyat bilan qaragan. Shuning uchun u hamma vaqt o'z she'rlarini qayta nazardan o'tkazgan va ularga tegishli tuzatishlar kiritgan.

Gafur Gulomning hikoyanavisligi “Jo'ra bo'za”, “Yigit” (1931), “Kulgi hikoyalar” (1932) to'plamlarida o'z aksini topdi. Adibning lirik-dramatik yo'nalishda yaratgan “Mening o'z rigina bolam” (1965 y) , yumoristik shakldagi “Hasan Kayfiy” hikoyalari alohida diqqatga sazovordir. Ularda adib ijodining bosh tamoyili-insonparvarlik ruhi etakchilik qiladi.

Gafur Gulom umri davomida juda ko'p she'rlar, hikoya, ocherk, doston va fel'etonlar yozdi. Sa'diyning «Guliston» asarini, Rudakiy, Firdavsiy, Bedil she'rlarini, Navoiyning Foniyl taxallusli forsiy nazamlarini o'zbekchaga o'girdi. Gafur Gulom she'riy va nasriy matn ustida ishlash,

uni o'zining ²oyaviy-estetik talablariga javob beradigan darajaga olib kelish uchun uzoq vaqt mashaqqatli mehnat qilgan. Uning asarlaridagi maftunkor joziba, sehrli mazmun, o'zgarmas poetik shakl ana shu talab va mashaqqatli mehnatning samarasidir.

MAVZUGA OID TAYaNCh TUShUNCHALAR:

Insonpavarlik-odamlarga ²amxo'r, odamlarni sevuvchi, gumanist.

Yodgor-biror shaxs yoki voqea hodisani eslatib turuvchi narsa, nishona, esdalik.

Shum bola-yaramas qiliqlar qiladigan, niyati buzuvchi, o'ta sho'x, to'polonchi bola.

TOPShIRIQLAR:

- 1. Gafur Gulomning bolalik yillari haqida gapiring.**
- 2. Gafur Gulomning etim o'sganligi uning ijodiga qanday ta'sir ko'rsatdi?**
- 3. Gafur Gulom ijodining bosh tamoyili nimadan iborat?**
- 4. Gafur Gulom she'riy to'plamlari.**
- 5. Gafur Gulom «Yodgor» povestida qanday muammoni talqin etgan?**
- 6. «Shum bola» qissasi haqida ma'lumot bering?**
- 7. Gafur Gulomning tarjima sohasidagi xizmatlari.**
- 8. Adib tavalludining 100 yilligiga ba²ishlab Respublikamiz miqyosida qanday tadbirlar o'tkazildi?**

MAVZU : OYBEK HAYoTI VA IJODI

(1905-1968)

REJA:

- 1.Oybekning hayot yo'li haqida.
- 2.Oybek lirikasi.
- 3.Oybek poemalari.
- 4.Oybek-iste'dodli romannavis.
- 5.Oybek-yirik adabiyotshunos olim va tarjimon.

ADABIYO TLAR:

- 1.Oybek. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. T., «Fan», 1990-1995yil.
- 2.Oybek. «Bolalik xotiralarim».T., «Adabiyot va san'at» nashriyoti.
- 3.H.Yoqubov. Adibning mahorati . «Fan»,Toshkent., 1966yil.
- 4.B.Fayziev. «Navoiy» romanida tarixiy voqealar va badiiy to'qima. G.Gulom nomidagi nashriyot. T., 1971 yil.
- 5.S.Mirvaliev. O'zbek romani. «Fan», Toshkent, 1969yil.
- 6.O.Yoqubov, U. Normatov. Oybek dahosi. «Yoshlik», 1985,1-son.
- 7.N.Karimov. Shaffof tuy'ular shalolasi. «Yoshlik» jurnali, 1985, 1-soni,
- 8.M.Qo'shjonov. Oybek mahorati. T., O'zadabiynashr, 1965yil.
- 9.N.Karimov. Oybek. T.,G.Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985 yil.
- 10.O.Sharafiddinov. So'z san'atiga fidoiy sadoqat. «Iste'dod jilolari» kitobida, G.Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976 yil .
- 11.M.Sobirdinov. Oybek she'riyatida tasviriylk. «Til va adabiyot ta'limi», 2000 yil, 1-son.

XX asr o'zbek adabiyoti tarixi rivojiga Oybek eng ko'p va rang-barang, serqirra ijodi bilan sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Garchi u adabiyotga

lirik shoir sifatida kirib kelgan bo'lsa-da, so'ng nazm va nasrning barcha janrlarida ajoyib asarlar yaratdi.

Muso Toshmuhammad o'2li Oybek 1905 yil 10-yanvarda Toshkentda to'quvchi oilasida tu2ildi. U dastlab eski maktabda o'qidi, keyinchalik oliy tahsilni O'rta Osiyo universitetida boshlab, Leningraddagi xalq xo'jaligi institutida davom ettirgan.

Oybekning ilk she'ri Navoiy nomidagi ta'lim va tarbiya texnikumida o'qib yurgan kezlarida «Tong yulduzi» devoriy gazetasida chiqqan va 1922 yili «Armu2on» to'plamida «Chol2u tovushi» nomi bilan bosilgan. Shu paytda yaratgan she'rlarining birini «Nay kuylari» deb atagan va uni Cho'lponga ba2ishlagan.

Oybekning qator she'riy to'plamlarining yuzaga kelishi uni kitobxonlar o'rtasida tanitib qo'ydi. 1926 yilda «Tuy2ular», 1929 yilda «Ko'ngil naylari», 1932 yilda «Mash'ala», 1933 yilda «Baxtigul va So2indiq» nomli she'riy to'plamlari chop etildi.

Uning ijtimoiy mavzudagi she'rlari, sof lirik she'rlari ham hozirgi kunda o'z qimmatini yo'qotmagan.

Oybekning 1934 yilda yozilgan «O'zbekisiton» she'rida vatanimizning go'zal tashbehlar bilan bezalgan badiiy tasvirini ko'ramiz:

**Bir o'lkaki, tupro2ida oltin gullaydi,
Bir o'lkaki, qishlarida shivirlar bahor,
Bir o'lkaki, sal ko'rmasa quyosh so2inar. . .**

Shoirning ko'pgina she'rlarini o'qir ekanmiz, bevosita Cho'lponning nozik tuy2u va ruhiy kechinmalari shohidi bo'lasiz:

**Qalbdan sevgi toshdi, firoq, 2am-alam. . .
Yuramen, daydimen. . . Parcha cho'2 qalbda.
Muhabbat dardida Majnun mendan kam,**

Go'zalim kelmadi, yonamen dardda . . .

Oybek 30 yillarning oxirlarida dastlabkilardan bo'lib tarixiy-biografik yo'nalishda «Navoiy» (1939) poemasini yaratdi. Poemada Navoiy davridagi muhit, sharoit tasvirlanadi. Adib «O'ch» (1932), «Baxtigul va So'ndiq» (1933), «Dilbar-davr qizi» (1932), «Qizlar» (1937), «Davrim jarahoti»(1965) kabi dostonlari bilan liro-epik janrdagi yuksak iste'dodini nomoyon qildi. U «Mahmud Tarobiy» operasini librettosi, «Galvirchi» singari tugallanmay qolgan pe'salari bilan dramaturgiyaga ham qo'l urdi.

1940 yilda «Qutlu² qon» romani nashr etildi. Shu yili «Rim adabiyoti» majmuasini o'zbek tiliga tarjima qildi. Navoiy va u yashagan davr hayotini chuqur o'rgangan adib ulu² shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hayotini aks ettirgan «Navoiy» (1942) romanini yaratdi.

Oybek umrining so'nggi yillari o'ir xastaligiga qaramay, qator asarlar yaratdi. Yirik jamoat arbobi sifatida qiz²in faoliyat olib bordi. U shoir, yozuvchi, publitsist va tarjimon sifatida samarali mehnat qildi. Ijodni umrining mazmuni deb bilgan Oybek betob yillarida «Quyosh qoraymas» (1943-1958), «Ulu² yo'l» (1967) romanlari, «Nur qidirib» (1957), «Bolalik»(1965), «Bola Alisher»(1967) qissalari, ko'pgina she'r va poemalar yaratdi.

Iste'dodli shoir Rauf Parfi Oybek xotirasiga ba'ishlab she'r yozgan edi:

**Biroq, hayhot, biroq bir quyun keldi,
Oydin buloq qayga berkindi.
Qaydadir sha'n va sobit chiroy,
Falaklarga qarayman endi,
Falaklarda kezib yurar oy.**

«Oybek xotirasiga» nomli ushbu she'ring biror misrasida Rauf Parfi Oybek nomini tilga olmaydi. O'quvchi shoirning Oybek taxallusi mazmunidan she'rni Oybek haqidaligiga tushunib etadi.

Oybek o'zining she'riy va nasriy asarlari bilan XX asr o'zbek adabiyotini boyitdi.

MAVZUGA OID TAYaNCh TUShUNChALAR:

Tuy²ular-ruhiy yoki jismoniy kechinmalar, his-tuy²ular majmui; his-tuy²u; his-hissiyot; ko'tarinki ruh, ehtiros.

Tabiat lirikasi-she'riyatda tabiat manzaralari va yil fasllarining turli ko'rinishlarini qahramonning ichki kechinmalari orqali aks ettirish.

TOPShIRIQLAR:

- 1.Oybek lirikasining o'ziga xosligi nimada?
- 2.She'riy to'plamlari qanday nomlangan va qaysi yillari chop etilgan?
- 3.Oybek taxallusini qanday izohlaysiz?
- 4.Adibning tarixiy mavzularda ijod qilishining boisi nimada?
- 5.Oybekning liro-epik asarlari haqida ma'lumot bering?
- 6.Roman janridagi ilk asari qaysi?
7. «Qutlu² qon» romanining bosh mavzusi va ²oyasi, obrazlari haqida gapiring?
8. «Navoiy» romanida qanday tarixiy va to'qima obrazlar bor?
- 9.Oybek o'zbek tanqidchiligi va adabiyotshunosligi taraqqiyotiga qanday hissa qo'shdi?

**MAVZU: ABDULLA QAHHOR HAYOTI VA IJODI
(1907-1968)**

REJA:

- 1.Abdulla Qahhor tarjimai holi.**
- 2.Abdulla Qahhor-hikoyachilik maktabi.**
- 3.Abdulla Qahhor qissalari.**
- 4.Abdulla Qahhor romanlari.**
- 5.Abdulla Qahhor komediyalari.**
- 6.Abdulla Qahhor tarjimalari.**
- 7.Abdulla Qahhor ijodining o'zbek adabiyoti tarixida tutgan o'rni.**

ADABIYOTLAR:

- 1.Abdulla Qahhor. Asarlar. U jildlik. T., Gafur Gulom
nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1987-1988 yil.**
- 2.M.Qo'shjonov . U. Normatov. Mahorat sirlari. T., Gafur Gulom
nomidagi Badiiy adabiyot nashriyoti, 1968 yil.**
- 3.O.Sharafiddinov. Abdulla Qahhor T., «Yosh gvardiya», 1988 yil.**
- 4.Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida. T., Gafur Gulom
nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987 yil.**
- 5.K.Qahhorova. Chorak asr hamnafas. T.. «Yosh gvardiya», 1986 yil.**
- 6.S.Sodiqov. Abdulla Qahhor ijodi va adabiy tanqid. T.,
Universitet, 1996 yil.**
- 7.S.Sodiqov. So'z san'ati jozibasi. T., «O'zbekiston», 1996 yil.**
- 8. U.Normatov. Qahhorni anglash mashaqqati. T., Universitet,
2000 yil.**
- 9.U.Normatov. Mutelikka qarshi isyon. (Abdulla Qahhor**

tavalludining 95 yilligiga). «Til va adabiyot ta'limi», 2002 yil, 4-son.

Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotining atoqli adiblaridan biri. U umri davomida ko'plab hikoyalar, qissalar, dramalar va romanlar yozdi. Abdulla Qahhor asarlari ko'pgina chet tillariga tarjima etildi. Adib o'zbek adabiyotining jahon miqyosidagi nufuzini oshishiga hissa qo'shdi.

Abdulla Qahhor 1907 yilning 17 sentyabrida hozirgi Xo'jand viloyatining Asht tumanidagi qishloqlardan birida tavallud topgan.

U yoshligidan o'tkir zehni, sinchkov, tevarak-atrofdagi voqea-hodisalarga e'tiborli inson bo'lib shakllandi. Boshlan²ich ma'lumot olgach, Qo'qondagi pedtexnikumda o'qidi. Sharq mumtoz adabiyoti, rus va boshqa xalqlar adabiyoti bilan tanishdi.

1923 yilda Abdulla Qahhorning «Mushtum» jurnalida birinchi fel'etoni bosildi. Shundan keyin, tez-tez matbuotda uning «Yalangoyoq», «Gulyor», «Mavlon kufur», «Nish», «Norin shilpiq» kabi taxalluslar ostida hajviy she'rlari, fel'eton va hikoyalari bosilib chiqa boshladi.

Abdulla Qahhorning birinchi kitobi 1932 yili «Qishloq hukm ostida» qissasidir. Bundan so'ng esa «Olam yasharadi», «Tangrining kulgusi» kabi hikoyalar kitoblari bosilib chiqdi.

Adib 1930 yili O'rta Osiyo Davlat Universitetining pedagogika fakul'tetida o'qiydi, keyin Til va adabiyot institutining aspiranturasiga kiradi.

1934 yili «Sarob» romanini yozib tugatdi. Roman o'zbek adabiyotida katta shov-shuvga, bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Asar tevaragidagi fikrlar romanning chop ettirilishini bir necha yillarga kechiktirdi.

Biz, Abdulla Qahhorni ko'proq hikoya janri ustasi sifatida yaxshi bilamiz. Uning hikoyalari hayotiy asoslarga egaligi uchun ham hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Adibning o'tmish mavzusiga

baʼishlangan «Anor», «Oʻ2ri», «Bemor», «Tomoshaboʻ2», «Millatchilar», «Dahshat» hikoyalari, «Oʻtmishdan ertaklar» qissasida oddiy xalqning oʻtmishi, turmush tarzi, ichki ruhiy holati va kechinmalari oʻz ifodasini topgan.

Shu oʻrinda yirik tadqiqotchi, professor Umarali Normatovning Abdulla Qahhor hikoyalari haqidagi quyidagi fikrlarini kiritib oʻtish maqsadga muvofiq deb oʻylaymiz:

«Qahhor tabiati, isteʼdodi yoʻnalishi jihatidan hayotdagi, odamlar qismatidagi fojeiylarni teran his etadigan adibdir. Uning eng etuk hikoyalari ayni fojeiy holat, qismatlar ifodalangan asarlardir. Hikoyalaridagi personajlar hayotidan olingan epizodlar, lavhalar garchi muayyan intiho, badiiy echim bilan yakunlansa-da, bunday yakun galdagi fojialar, koʻrguliklarning debochasi vazifasini oʻtaydi. «Bemor»dagi Sotiboldi xotini oʻlimi uyqu aralash ayasining dardiga davo tilagan qizaloq va xotini dardiga davo qidirib bor budidan judo boʻlgan erning yangidan-yangi sarson-sargardonliklari ibtidosidir. «Anor»dagi Turobjonning oxirida jinoyatga qoʻl urishi bu oila boshiga tushajak galdagi chigal savdolarining boshlanishidir. «Oʻ2ri»dagi jabrdiyda cholning najot izlab mansab-martabaning turli zinapoyalarida turgan yulʼichlarga duch kelib, shilinib, oxirida «najot» topishi-Egamberdi paxtafurushning himmatiga sazovor boʻlishi, bu himmat esa kelgusida yuz berajak avvalgilardan-da oʻ2irroq talonchilikning oʻzginasidir. «Dahshat» hikoyasida Unsinning «tiriklar goʻristoni» boʻlgan Olimbek dodxo xonadonidan qutulish yoʻlidagi mislsiz jasorati qahramonning halokati bilan tugaydi, biroq qahramon oʻlimi dodxo xonadonini izdan chiqaradi, talotumlarga griftor etadi. «Asrorbobo»dagi chol bilan kampirning jangda halok boʻlgan oʻ2li haqidagi sovuq xabarni bir-birlarini ayab sir tutishlari, cheksiz dard – alam, qalb iztiroblarini ichga yutishlari-bir umr davom etadigan fojining alomat koʻrinishi-badiiy ixtirosidir. . .

Xullas, odamlar turmushidan olingan epizodlarda, lavhalarda ular hayotiga, qismatiga daxldor fojeiy mohiyatni ko'rish, teran his etish, personajlar xarakteri va qismatini ularning ruhiyati ifodasi orqali yorqin badiiy detallar vositasida gavdalantirish Qahhor hikoyanavislik san'atining eng muhim jihatlaridir».

Abdulla Qahhorning «To'yda aza» nomli hajviy hikoyasi ham bor. Urushdan keyingi yillarda «Ko'k konvert», «Qizil konvert», «Kampirlar sim qoqdi», «Xotinlar», «Asror bobo», «Beshik», «Mahalla». «Nurli cho'qqilar» kabi hikoyalari chop etildi.

Shu yillari uning «Qo'shchinor chiroqlari» romani e'lon qilinadi. Roman hozirgi kun talablariga to'la javob beraolmasa-da, o'z davri masalalarining badiiy ifodasi sifatida ma'lum ahamiyatga egadir.

Adib «Sinchalak», «O'tmishdan ertaklar», «Mahalla» singari qissalarida ham xarakter yaratishda o'z mahorati qirralarini yana bir karra namoyon qildi. Qissalarida realistik uslub etakchilik qilgan bo'lib, hayotimizdagi ayrim kamchiliklar ochib beriladi.

Abdulla Qahhor drama janrida ham badiiy yuksak asarlar yaratdi. 1949 yili «Yangi er yoxud Shohi so'zana», 1954 yili «O'riq tishlar», 1962 yili «Tobutdan tovush», 1967 yili «Ayajonlarim» komediyalarini yozib tugallagan. Komediylar o'sha vaqtning o'zidayoq sahnalashtirilib, tomoshabinlarning olqishiga sazovor bo'lgan.

Abdulla Qahhor badiiy tarjimachilik sohasida ham samarali qalam tebratdi. Jumladan, M.Gor'kiyning «Mening universitetlarim», F.Gladkovning «Olovli ot», A.Serafimovichning «Temir oqim». M.Shaginyanning «Gidrotsentral», I.Lening «To'lar orasida» hamda Gogol' va Chexovning qator asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi.

Umuman olganda, Abdulla Qahhor shaxsiyati butun, bir so'zli, haqiqiy inson bo'lgan. Ijodkor sifatida XX asr o'zbek adabiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, o'zidan ulkan badiiy meros qoldirdi.

MAVZUGA OID TAYaNCh TUShUNCHALAR:

Shohi so'zana-shoyiga gul tikib tayyorlangan, devorga osiladigan bezak buyumi; gul ko'rpa.

Sinchalak-oyoq va bellari ingichka qush, shevada-chittak.

O'2ri-o'2irlovchi, o'2rilik bilan kun kechiruvchi shaxs.

TOPShIRIQLAR:

1. Abdulla Qahhorning bolalik va o'smirlik yillari qayerda o'tgan?
2. Adibning ilk hikoyasi qaysi va unda xarakter yaratish mahorati qanday namoyon bo'lgan?
3. Abdulla Qahhor hikoyachilik maktabi haqida gapiring?
4. «O'2ri», «Bemor» hikoyalarida hayotdagi qanday muammolar qalamga olingan?
5. Abdulla Qahhorning dramaturg sifatidagi faoliyati.
6. «Sarob» romanida shaxs fojiasi qanday ochib berilgan?
7. Abdulla Qahhorning tarjima sohasidagi xizmatlari nimada?

**MAVZU: HAMID OLIMJON HAYoTI VA IJODI
(1909-1944)**

REJA:

- 1.Hamid Olimjonning hayot va ijod yo'li.**
- 2.Hamid Olimjon lirikasining ²oyaviy-badiiy xususiyatlari.**
- 3.Xalq o²zaki ijodi va Hamid Olimjon.**
- 4.Hamid Olimjon dramalari.**
- 5.Hamid Olimjon ijodining ahamiyati.**

ADABIYO^{TLAR}:

- 1.Hamid Olimjon. Mukammal asarlar to'plami.10 tomlik, T., «Fan», 1975-1984 yil.**
- 2.N.Karimov. Hamid Olimjonning poetik mahorati. T., «Fan», 1964 yil..**
- 3. S.Mamajonov. Shoir dunyosi. T., Gafur Gulom nomidagi nashriyot, 1972 yil.**
- 4.N.Karimov. Hamid Olimjon. T., «Yosh gvardiya»,1990 yil.**
- 5.S.Azimov. Hamid Olimjon abadiyati. Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, T., 1967 yil.**
- 6.H.Yoqubov. Hamid Olimjon. Manba: «O'zbek Sovet adabiyoti tarixi,» P tom, «Fan», T., 1971.**
- 7.Nafosat chashmasi (Hamid Olimjon haqida maqolalar). «Fan», Toshkent.,1970 yil**
- 8.Sen elimning yuragida yashaysan. To'plam. Gafur Gulom nomidagi nashriyot, T., 1973 yil**

Hamid Olimjon qisqa umr ko'rgan bo'lsa-da, sermazmun asarlari bilan o'ziga abadiy haykal yaratib qoldirdi.

U 1909 yil 12 dekabrda Jizzaxda tu²ildi. Otasining ismi Olim buva, onasining ismi Komila aya bo'lib, to'rt yoshga etar-etmas otadan etim qolib, Azimbobo qo'lida tarbiyalangan.

Azimbo bo va Komila aya Abdulhamidning yoshligidan ijodga havasini uy²onishiga ta'sir ko'rsatishgan.

Hamid Olimjon maktabni tugatib, Samarqanddagi Pedakademiya da tahsil oldi. Uning ilk she'rlar to'plami «Ko'klam» nomi bilan 1929 yili bosilib chiqqan.

Hamid Olimjon lirik she'rlarida umuminsoniy ²oya va tuy²ularni kuyladi. «Baxtlar vodiysi» balladasi, «O'rik gullaganda» she'rlarida ham insonning go'zalligi qalbidagi tuy²ulari, uning tabiatidagi fazilatlar bilan belgilanishi, hamda tabiatning go'zal tasviri yuksak badiiy mahorat bilan chizib beriladi. Tabiat tasviri bilan lirik qahramonning baxt-saodati uy²unlikda sevgi tuy²ularini yanada ravshanlashtirgan.

Hamid Olimjon urush yillarida ham samarali ijod qildi. «Sevgi», «Sen tu²ilgan kun», «Sharqdan Garbga ketayotgan do'stga», «Qamal qilingan shahar tepasidagi oy» singari she'rlarida urush davri voqealarini badiiy aks ettirdi. Urush yillarida yozilgan eng yaxshi balladalaridan biri «Roksananing ko'z yoshlari» dir.

Hamid Olimjon xalq ertaklari asosida 1937 yili «Oygul bilan Baxtiyor», 1939 yili «Semur² yoki Parizod va Bunyod» dostonini yaratdi.

1935 yili «Zaynab» ocherkini, u asosda «Zaynab va Omon» dostonini kitobxonlarga taqdim etdi.

Hamid Olimjon serqirra ijod sohibidir. Buni adibning dramaturgiyadagi muvaffaqiyatlari yana bir karra isbotlaydi. 1942 yili «Muqanna» dramasini yozib tugatdi. Dramada bundan 12 asr muqaddam butun Movaraunnahrni larzaga keltirgan Muqanna boshliq harakatning yoritib berilishi, ayniqsa, urush yillarida vatan ozodligi, himoyasi yo'lida katta ahamiyat kasb etdi. «Muqanna» dramasidan keyin Hamid Olimjon yana bir drama yozishga kirishdi. Bu «Jinoyat» dramasi bo'lib, asar 1944 yilda to'la nihoyasiga etkazilgan. Dramaga adib ruhiy jihatdan juda katta ta'sir qilgan hayotiy bir voqeani asos qilib olgan.

Hamid Olimjon tarjima sohasida ham faoliyat ko'rsatib, Pushkinning «Kavkaz asirasi» dostoni, «Suv parisi» dramasini, bir qator she'rlarini o'zbek tiliga o'girdi.

Hamid Olimjon shoir, dramaturg, publitsist, tarjimon, adabiyotshunos va ulkan jamoat arbobi sifatida o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga hissa qo'shgan iste'dodli ijod sohibidir.

MAVZUGA OID TAYaNCh TUShUNChALAR:

Ko'klam-yilning qish bilan yoz oraliqidagi fasli; bahor

Baxt-hayotdan to'la mamnunlik va barmonlik holati. Omad, tole; iqbol.

Shodlik-biror narsadan mamnun bo'lish, xursandlik; sevinch, quvonch.

Muqanna-asl ismi Hoshim ibn Hakim bo'lib, Muqanna, ya'ni«niqobli kishi» uning laqabidir. Movaraunnahrni arablar istilosidan ozod qilish uchun kurashgan shaxs.

TOPShIRIQLAR:

- 1.Hamid Olimjonning bolalik va o'smirlik yillari haqida ma'lumot bering?**
- 2.Hamid Olimjonning ilk she'riy to'plamining nomi va u qachon bosilib chiqqan?**
- 3.She'riy to'plamlari haqida gapiring?**
- 4.Hamid Olimjon ijodiga xalq o'zaki ijodi qanday ta'sir ko'rsatgan?**
- 5.Doston janridagi asarlari qaysilar?**
- 6. «Muqanna» dramasining yaratilish tarixi va 2oyasi haqida nimalarni bilasiz?**

7. «Jinoyat» dramasi yozilishiga turtki bo'lgan hayotiy voqea nima?

**MAVZU: MIRTEMIRNING HAYOTI VA IJODI
(1910-1978)**

R E J A :

1. Mirtemirning hayoti va ijodi haqida ma'lumot.
2. Mirtemir she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Mirtemirning tarjimonlik faoliyati.
4. «Qoraqalpoq daftari»da xalq hayotining real tasviri.
5. «Sur'at» lirik qissasi va «Yodgorlik» asarlari haqida ma'lumot.

ADABIYOTLAR:

1. Mirtemir. Asarlar. 4-jildlik, T., G. Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980-1983.
2. Mirtemir tingla hayot. Sochmalar, esdaliklar, to'y xatlar, sadolar. T., 1974 yil
3. T. Xalilov. Mirtemir mahorati. G. Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, T., 1980 yil.
4. I. Gofurov. Ona yurt kuychisi. T., 1970 yil.
5. N. Karimov. «Bitta o'zim bilaman», «Sharq yulduzi» 1991, 5-son.
6. M. Shukurov. Bu olam sahnida. T., 1982 yil
7. O. Sharafiddinov. Mirtemir. «Birinchiligi» kitobida. T., G. Gulom nomidagi. Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979 yil.

8.Nosir Fozilov.Yaxshilar yodi.O'zbekiston adabiyoti va san'ati,2001 yil, 11 may.

9.R.Sodiqova.Tarixiy shaxsning badiiy talqini.Til va adabiyot ta'limi.2002,1-son.

O'zbekiston xalq shoiri Mirtemir XX asr o'zbek she'riyatini o'zining lirik she'rlari va badiiy yuksak dostonlari bilan boyitdi.Uning asarlarida xalq hayotining nafasi urib turadi, inson qalbi eng teran puchmoqlargacha aniq ko'rinadi,ona yurtning turfa xil ranglari jilolanadi.O'zbek munaqqidlari Mirtemirni «o'zbek she'riyatining bobodehqoni» deb atashardi.Darhaqiqat,shoir mumtoz adabiyot an'alaridan ibrat olib,xalq o'zaki ijodidan unumli foydalanib,o'zbek adabiyotini boyitdi.

Mirtemir Tursunov 1910 yili hozirgi Chimkent viloyatiga qarashli Iqon qishloqida tug'ilgan

U dastlab shu qishloqdagi eski maktabda,keyinchalik esa 1921 yildan Toshkentdagi «Alpomish» nomidagi maktabda o'qidi.

Mirtemirning ijodi maktabda o'qib yurgan kezlaridan boshlandi.Birinchi she'ri «Tanburim tovushi»1926 yilda«Er yuzi» jurnalining 15-sonida bosilgan.

Mirtemir 1929 yili Yangi shahardagi O'zbek erlar bilim yurtini bitirib, Samarqand Davlat dorilfununida o'qiydi.

Ko'p o'tmay Mirtemir shoir sifatida taniladi.1928 yili uning birinchi she'rlar to'plami «Shu'lalar qo'ynida» nomi bilan nashr etiladi.To'plamga kirgan she'rlar haqida munaqqidlar o'sha kezdayoq iliq fikrlar bildirishgan.

Keyinchalik uning «Zafar»(1929), «Qaynashlar»(1932), «Tong» (1932), «Ochlar o'lkasida»(1936), «Poytaxt» (1936), «O'ch»(1943), «Tanlangan she'rlar» (1947), «Tanlangan asarlar» (1958), «She'rlar»(1961,1964) «Yangi she'rlar»(1967), «Qush tili» (1970), «Tingla hayot» (1974) «Kipriklarim» (1976), «Izlayman» (1976) «Yodgorlik»(1978) kabi to'plamlari o'quvchilar hukmiga havola etildi.

Mirtemir ijodiy kamoloti «O'ylar», «Qiz²aldoq», «Bo²imning chechaklari», «Lolazordan o'tganda», «Balki», «Quyoshning zabti» kabi she'rlarida yanada ravshanroq ko'rinadi. Shoir lirikasida tabiat tasvirining ham o'ziga xos o'rni bor. «Yashil yaproqlar» she'rida mohirona qo'llanilgan tasviriy detallar o'quvchi qalbiga o'ziga xos iliq hislar olib kirishga ko'maklashgan:

Salqin,silliq,so'lim bahor ertasi,
Ufq bo'ylab yonar shafaq bayroqlar.
Yasharib tovlanar barra yaproqlar –
Qo'shiqday taralar qushlar na²masi.
Dalada,sahroda,soy sirtlarida
Quyosh kokillari yotur parishon.
Poyonsiz ekinzor beradi nishon
Uzoq ufqlarda,ko'k chetlarida

Mirtemir izlanishlari o'zbek kitobxonini qator asarlarni o'z tilida o'qishiga imkoniyat yaratib berdi.U M.Gor'kiyning «Bo'ron qushi haqida qo'shiq» asarini,A.S.Pushkinning ertaklarini,M.Yu.Lermontovning she'rlarini,N.A.Nekrasovning «Rusiyada kim yaxshi yashaydi?» poemasini,Sh.Rustavelining «Yo'l- bars terisini yopingan pahlavon» (M.Shayxzoda bilan birgalikda) dostonini,qir²izlarning buyuk «Manas» eposining birinchi kitobini (1964 yilda),Uy²un bilan hamkorlikda nashr etilgan qoraqalpoqlarning «Qirq qiz»ini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qildi.

Bundan tashqari,Ejen Pot'e,Abay,Berdaq,Nozim Hikmat, Genrix Geyne, A.Tvardovskiy, Pablo Neruda kabi shoirlarning asarlari tarjimasi ham Mirtemirning say-harakatlari natijasida o'zbek tiliga o'girildi.

Xalq o'zaki ijodini chuqur o'rgangan shoir «Dilkusho», «Suv qizi», «Oysanamning to'yida» kabi dostonlar yaratdi.

Mirtemir bir necha marta Qoraqalpoq²istonga boradi, qardosh xalqlarning madaniyatini, adabiyotini, turmush tarzini o'rganadi. Ana shu taassurotlar natijasida 1957 yili «Qoraqalpoq daftari» turkumi she'rlari maydonga keladi.

Bu turkumga kirgan «Suluv yoz», «Tonglar ham go'zal», «Daryo jimir-jimir», «Bulut» kabi she'rlarini o'qir ekansiz shoirning tabiat go'zalligini, hayotni butun borliqi bilan sevishi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Lirik qissa o'zbek adabiyotida ilk bor yangi bir janr sifatida Mirtemir tomonidan yaratilgan. Uning «Qoraqalpoq daftari» she'riy turkumidan «Surat» dostoni ham o'rin olgan bo'lib, lirik qissaning o'zbek she'riyatidagi dastlabki ko'rinishidir.

«Surat» lirik qissasida Mirtemir inson ruhiyatini butun murakkabligi bilan tasvirlab bera olgan. Qissa bir syujet chiziqi asosida qurilgan emas, balki bir nechta alohida-alohida lirik lavhalardan tashkil topgan.

«Surat» qissasi yozilgan vaqtda she'riyatda insonlarning ruhiy iztiroblarini, yurak dardlarini kuylash tushkunlik kayfiyatiga berilish deb hisoblanar, kuylashga jur'at etgan shoir ham pessimist shoir sifatida qoralanar edi. Ana shunday davrda ham Mirtemir haqiqatni yozishda o'zida kuch va jur'at topdi.

Mirtemirning so'nggi asari «Yodgorlik» deb ataladi. Kitobga shoirning turli xil mavzudagi she'rlari kiritilgan bo'lib, shoir iste'dodining butun qirralari aniq va ravshan ko'rinib turadi.

Xullas, o'zbek she'riyatining «bobodehqoni» Mirtemir ijodining o'zbek adabiyotida muhim o'rni bor.

MAVZUGA OID TAYaNCh TUShUNChALAR:

Surat - qo'lda chizilgan tasvir, rasm.

Yodgorlik – esdalik sifatida saqlanadigan narsa, obida.

Sochma –vaznda cho'ziq va qisqalikka amal qilinishi, bo'inlar miqdorining tengligiga esa amal qilmaydigan she'r turi.

TOPShIRIQLAR:

- 1.Mirtemir she'riyatidagi xalqchil ruh manbalari nimada deb o'ylaysiz?
- 2.Mirtemir poeziyasiga xalq ijodiyotining ta'siri qaysi jihatlarda namoyon bo'ladi?
- 3.Uning qaysi she'rlarini yod bilasiz va qanday asarlarini o'qigansiz ?
- 4.Mirtemir she'riyatida tabiat tasviri qanday rol' o'ynaydi?
- 5.Mirtemirning tarjimonlik sohasidagi xizmatlari.

**MAVZU: ZULFIYA HAYOTI VA IJODI
(1915-1996)**

REJA:

- 1.Zulfiyaning hayot yo'li haqida.
- 2.Zulfiya she'riyati: a)urush va hijron mavzusi;
- 3.Zulfiya iste'dodli dostonnavis.

4.Zulfiya ijodining o'zbek poeziyasi taraqqiyotidagi o'rni.

ADABIYOTLAR:

- 1.Zulfiya. Asarlar. Uch tomlik. T., Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983-1986 yil.**
- 2.L.Qayumov. Shoiri Zulfiya.Hayoti va ijodi haqida ocherk. O'zadabiynashr, Toshkent, 1965 yil.**
- 3.I.Gafurov. Joziba. Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, T., 1970 yil.**
- 4.A.Akbarov. Zulfiya. Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983 yil.**
- 5.M.Sultonova. «Ijod sahifalari» T., «Fan», 1975 yil.**
- 6.O.Sharafiddinov. Qalbimizga yaqin shoiri. «Adabiy etyudlar» kitobida, Gafur Gulom nomidagi nashriyot, 1968 yil.**
- 7.Zulfiya. Hulkar. T., O'zadav-nashr, 1947 yil.**
- 8.Zulfiya. «Adabiy o'ylar» T., «Fan». 1985 yil.**

XX asr o'zbek shariatida iste'dodli shoiri Zulfiyaning ham o'z o'rni bor.

Zulfiya Isroilova 1915 yil 1 martda Toshkentning O'qchi mahallasida tug'ildi. Oila a'zolarining she'riyatga ixlosi baland, musiqani esa jon dilidan sevishardi. Zulfiya oilaning eng kenja farzandi bo'lib, to'rtta akasi bor edi. Otasi degrez bo'lgan. «Otamni ham xuddi bobom kabi degrez der edilar. Otam zahmatkash temirchi edi. O'sha vaqtda bolalarini boqish, ro'z'or tebratish uchun odamlar juda ko'p mehnat qilishlari zarur ekanligiga sira aqlim etmas ekan. Otamning hamma vaqt olovga yo'ldosh kasbidan faqat zavq va shavqni ko'rar edim. Otamday qudratli odam yo'q edi men uchun», degan edi Zulfiya.

Onasi esa juda zehqli, shoirtabiat ayol edi. «Onamning qanchadan qancha qo'shiq va afsonalari, doston va ertaklarni bilishiga aqlimiz bovar qilmasdi. Bu sehrli afsona va dostonlar bizga benihoya huzur ba'ishlar, o'ziga rom qilib olar edi. Aminmanki, mo'jizalar yaratishga qodir, jahonni ko'zga keng ochuvchi, insonni go'zallik sari etaklovchi so'zga shaydolik hissini mening qalbimda ostonaga hatlab ko'chaga chiqmagan oddiy ayol-onam uy²otgan»-deya eslaydi shoira..

Zulfiya boshlan²ich ta'lim olgach, xotin-qizlar pedagogika bilim yurtida tahsil oldi (1931-1934). Shu erda ilk bor she'rlar mashq qila boshladi. Bilim yurtida Shukur Sa'dulla rahbarligida tashkil etilgan adabiy to'garak Zulfiyani ijodga kirib kelishida katta rol o'ynaydi. Uning ilk she'ri «Qizil durra» xotin-qizlarning paranjini tashlab, boshlariga durra o'ray boshlash munosabati bilan yozilgan. Zulfiyaning birinchi she'rlar to'plami 1932 yili, 17 yoshida «Hayot varaqlari» nomi bilan bosilib chiqdi. 1935 yilda Hamid Olimon bilan turmush qurishgan. Hamid Olimjon Zulfiya uchun nafaqat umr yo'ldoshi, balki eng yaqin do'st, ustoz edi.

Shuning uchun ham shoira²ning bevaqt (1944 yilda) Hamid Olimjondan ajralib qolishi hayotidagi eng fojeiy zarba bo'ldi.

Zulfiya ilm egallashga zo'r ishtiyoq bilan kirishgan. Aspiranturada o'qigan, bolalar nashriyotida ishlagan, bitta o'2il-Omon, bitta qizi Hulkar tarbiyasi bilan jiddiy shu²ullangan.

1953-1980 yillarda «Saodat» jurnalida bosh muharrir bo'lib ishladi. Respublikamiz vakili sifatida qator chet mamlakatlarda safarda bo'ldi.

Zulfiyaning «O'ylar», «Hijron kunlarida», «Yillar , yillar», «Mushoira» turkumi she'rlari adabiyotimizda katta voqea bo'ldi. To'plamlarga kirgan she'rlarida hijron, sevgi, sadoqat, vatan, o'lim, tong, hayot, umr, tinchlik, dunyo, yurtdoshlarining shodligu qay²ulari, iztiroblarini o'ziga tegishli dard sifatida talqin etdi. Ayniqsa, shoira she'rlarida ayollarga xos nafis, latofatli, jozibali his-tuy²ular hukmron.

She'rlarida samimiylik kuchli. Mehribon onaning 2amxo'rligidan tortib, Ona-Vatanni asrab-avaylashgacha bo'lgan umuminsoniy 2oyalar etakchilik qiladi.

Zulfiya qator dostonlar yaratdi. Uning «Uni Farhod der edilar», «Quyoshli qalam», «Xotiram siniqlari» kabi dostonlari shoira dunyoqarashining kengaygani, turmush tajribalarining ortgani, tuy2u va fikrlarining teranlashganini yaqqol ko'rsatib turadi.

«Quyoshli qalam» dostonini o'zbek adabiyotining zabardast adibi Oybekka (xotirasiga) ba2ishladi. Unda imkon qadar shoir ruhiy olamini ochib berishga intildi.

Zulfiya uzoq umr ko'rdi. «Xotiram siniqlari» dostonida aytganidek:
Hurriyat keldingmi, nahotki kelding,
Kelar yo'llaringda pinhona toldim.
Mening ota-onam, jon Vatanimda,
Elim taqdirida abadiy qolding

U baxtli zamonamizni-Vatanimiz Mustaqilligini ko'rishga muyassar bo'ldi, xalqimiz boshidan o'tgan dardu jafolar ortda qolganidan shukronalar aytdi.

Zulfiya respublika Davlat Mukofoti sovrindori, O'zbekiston xalq shoirasi, xalqaro «Nilufar» mukofoti, Mehnat Qahramoni unvoni va «Do'stlik» ordeni sohibasidir.

Uning she'riyati xalqimizning ruhiy-ma'naviy olamini boyitishga ko'maklashaveradi.

MAVZUGA OID TAYaNCh TUShUNChALAR:

Hayot varaqlari-insonning yashab o'tgan davri sahifalari.

Mushoira-bir necha shoirning bir mavzuda bir-birining fikr va tuyʻularini rivojlantirish niyatida she'r aytishish musobaqasi.

Xotiram siniqlari-biror kimsa yoki narsa haqidagi esda saqlangan (nursiz, so'p'in) taassurotlar.

Kamalak-quyosh nurining yom'ir tomchilarida sinishi natijasida qizil, ko'k, pushti va zangor chiziq bilan tovlanib ko'rinadigan yo'l.

TOPShIRIQLAR:

- 1. Zulfiya tarjimai holi haqida nimalarni bilasiz ?**
- 2. Zulfiya she'riyatining boshqa shoiralar ijodidan farq qiladigan tomonlari nimada?**
- 3. Zulfiya ijodida hijron mavzusi.**
- 4. Zulfiyaning «Quyoshli qalam» dostonining ʻoyaviy mazmuni va u kimga atab yozilgan?**
- 5. Shoiraning «Xotiram siniqlari» dostoni haqida ma'lumotlar bering?**
- 6. Birorta she'rini yodlang.**

MAVZU : SAID AHMAD HAYOTI VA IJODI
(1920 yilda tug'ilgan)

REJA:

- 1. Hayot va ijod yo'li haqida.**
- 2. Said Ahmad mohir hikoyanavis.**
- 3. Said Ahmad komediyalari**
- 4. Said Ahmad romanlari.**
- 5. Said Ahmad ijodining o'zbek adabiyotida tutgan o'rni.**

ADABIYOTLAR:

- 1. Said Ahmad. Saylanma. Uch tomlik. T., Gafur Gulom nomidagi nashriyot, 1980-1981 yillar.**
- 2. Said Ahmad. Jimjitlik. T., Gafur Gulom nomidagi nashriyot, 1989 yil.**
- 3. I. Gafurov. Prozaning shoiri. T., Gafur Gulom nomidagi nashriyot, 1981 yil.**
- 4. U. Normatov. Said Ahmad. T., Gafur Gulom nomidagi nashriyot, 1971 yil.**
- 5. Abdulla Qahhor. Asarlar. Besh jildlik. Beshinchi jild. Haq so'zning kuchi. T., Gafur Gulom nomidagi nashriyot, 1989 yil.**

- 6.H.Abdusamatov. Hayot. Adabiyot, teatr. Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1976 yil.
- 7.M.Azimova. Hozirgi o'zbek dramaturgiyasi. «O'zbekiston», Toshkent, 1984 yil.
- 8.N.Xudoyberganov.Haqiqat yoʻldarlari. Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1984 yil.
- 9.B.Imomov. Hayot va dramatik konflikt. «Fan», Toshkent, 1968 yil.

Atoqli adib Said Ahmad adabiyotimizni o'zining hikoyalari, publitsistik maqolalari, qissa va romanlari, komediyalari bilan boyitgan mo'ysafid ijodkordir.

Said Ahmad Husanxo'jaev 1920 yilda Toshkent shahrida tuʻilgan. 1938-1941 yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika Oliygoʻhida ta'lim olgan.

Said Ahmad adabiyotga hikoyanavis sifatida kirib keldi. U «Onajonlar», «Turnalar», «Cho'l burguti», «Muhabbatning tuʻilishi», «To'y kechasida», «Hayqiriq» singari qator hikoyalar yozdi.

Uning birinchi hikoyalar to'plami 1940 yilda. «Tortiq» nomi bilan chop etildi.

«Muzey», «Mening do'stim Babbaev» hajviy hikoyalarda oddiy hayotiy voqealar asosida ijtimoiy muammoni, qolaversa, ma'naviy muammoni o'rtaga tashlaydi. Said Ahmad hajviylarining o'ziga xosligi, hayotbaxshligi uning xalqchilligidir.

Bu yo'nalishda adib bir qancha hajviylar yaratdi. 1994 yilda «Xandopista» to'plamiga kirgan «Bir siqim xandonpista», «Bo'ri ovi». «Go'shtning zarari haqida» hajviylarida yozuvchi ulkan iste'dodi yana bir karra isbotlanadi.

Adibning kulgidagi mahorati dramatik asarlariga ham ko'chdi.

Said Ahmadning «Kelinlar qoʻzʻoloni» komediyasi salkam 30 yildan buyon sahnadan tushmay keladi. Komediya avval shu nomdagi hikoya yozilgan edi. Oʻquvchilar hikoyani juda katta qiziqish bilan qabul qilishgan edi.

«Kelinlar qoʻzʻoloni» katta bir oʻzbek oilasining sertashvish va serzavq hayotining tasviriga baʼishlanadi. Komediya katta tanqidiy fikrlarga uchradi. Ammo vaqt asarning oʻziga xos bahosini koʻrsatdi. Hamza nomli teatrning oʻzidayoq 500 martadan ortiq sahnada koʻrsatilib, tamoshabinlarning yuksak olqishiga sazovor boʻldi.

Komediya etti oʻʻil, etti kelin, Farmonbibini, usta Boqi, muxbir va begona ayol obrazlari bor.

Said Ahmad ularning har biriga xos xarakter-xususiyatini voqealar tafsilotida yorqinroq koʻrsatib bera boradi. Har bir obrazning bir-biriga oʻxshamagan xulq-atvorini ularning tili orqali aniq ochib bera olgan. Adib bu komediya keyin, 1986 yilda «Kuyov» nomli yana bir komediya yozdi. Muallif bu asarda keksha yoshdagi boʻydoq kishi hayoti, uning yaqinlari taqdiri orqali axloqiy-maʼnaviy masalalar haqida bahs yuritadi.

1956 yillardan Said Ahmad ijodiy yoʻlining keyingi bosqichi boshlanadi. Bu yillarda «Koʻklam chechaklari», «Koʻklam taronalari», «Xazina», «Iqbol chiroqlari» kabi bir qator hikoyalar yaratdi.

«Choʻl burguti», «Choʻl shamollari» turkum hikoyalari, «Hindcha oʻyin», «Kuchukcha», «Kolbasa qori», «Oʻrik domla» kabi hikoyalarida esa hajviy ruh bosh oʻringa chiqadi.

1964 yilda Said Ahmad yirik janrdagi asarga qoʻl urib, «Ufq» romanini yaratdi. Bu roman trilogiya boʻlib, dastavval, ikkinchi kitob-«Hijron kunlari» (1964), soʻng uchinchi kitob «Ufq boʻsaʻasida» (1969), keyin esa birinchi kitob «Qirq besh kun» (1974) yozib tugallangan.

Asar yozilmasdan oldin, Said Ahmad Yozyovon cho'llari, aholisi hayotini sinchiklab kuzatgan, qahramonlari bilan tanishgan. Bu haqda qator hikoyalar yaratgan.

Trilogiya aniq tarixiylik asosiga ega. Asar voqealari tarixan aniq hududlarda bo'lib o'tadi. Ayrim qahrmonlar o'z prototipiga ega.

Trilogiyaning birinchi romani «Qirq besh kun» bo'lib, asarning asosiy qahramonlari –Far²ona kanali qurilishida ishtirok etgan Xalqdir. Romanda ana shu xalq ruhi, jasorati, bunyodkorligi, mehnatsevarligi ayrim obrazlar- Azizxon, Do'nan, Eshmuhammad, Tojimat ota qiyofasida ochib beriladi.

«Hijron kunlari»da urushning oqibatlarini ayrim qahramonlar taqdiri orqali ko'rsatib berilishi bilan xarakterlanadi. Jannat xola va uning yoshligidan erka, tantiq bo'lib o'sgan o'2li –Tursunboy qismati, otasi Ikromjon boshidan kechirgan ruhiy azoblar kitobxonni hayajonga solishi tabiiy.

«Ufq» romani Said Ahmadga katta shuhrat keltirdi. Asar haqida buyuk so'z ustasi Abdulla Qahhor shunday fikrlar bildirgan edi: «. . . «Ufq»da tasvir etilgan qishloq hayotini, odamlarini ko'rib, har bir o'zbek katta iftixor bilan: «Biz o'zbeklar!» deydi, qardosh xalqlar o'zbekni mehr bilan: «O'zbek o'2aynim», deb ataydi.

Said Ahmad bundan ko'p yillar muqaddam qo'liga adabiyot tanburini olib chertganda, qo'li kelishganini ko'rib, yaxshi sozanda bo'lib, yaxshi-yaxshi mashqlar chalishini orzu qilgan edik. Shu orzu ushalib kelayotibdi. «Ufq» uning ilhom va mahorat bilan chalingan mashqidir. Sozanda ba'zi pardalarga ortiqroq nolish berib yuborgan bo'lsa, buni hayajon natijasi deyish kerak».

Asar bir necha tillarga tarjima qilingan «Ufq» Hamza nomidagi teatrdan ham sahnalashtirilgan.

Said Ahmadning 1988 yilda «Jimjitlik» romani yaratildi. Asarga tur²unlik yillari davri voqelari asos qilib olingan.

Umuman olganda, Said Ahmad o'zbek adabiyotida o'ziga xos maktab yaratgan adib.

Yozuvchi asarlari 20 dan ortiq tillarga tarjima qilingan. Mustaqil O'zbekistonning «Xalqlar do'stligi» ordeniga sazovor bo'lgan. O'zbekiston xalq yozuvchisi yuksak unvoni bilan taqdirlangan.

1999 yilda Mustaqil O'zbekiston ahli ma'anaviyatini shakllantirish borasidagi ulkan xizmatlari uchun yozuvchiga O'zbekiston Qahramoni unvoni berildi.

MAVZUGA OID TAYaNCh TUShUNChALAR:

Jimjitlik-churq etgan tovush, shovqin yo'qligi; tinchlik, jimlik, sukunat.

Tortiq-birovga tuhfa qilingan narsa, sov²a.

Hukm-biror masala haqidagi aniq fikr, xulosa.

Ufq-osmon bilan urning yoki suv sathining ko'z il²agan uzoqlikda o'zaro tutashganday bo'lib ko'ringan chizi²i.

Hijron-ayriliq, judolik, firoq.

TOPShIRIQLAR:

- 1.Said Ahmadning o'zbek adabiyoti ravnaqidagi hissasi.**
- 2.Said Ahmad hajviy hikoyalarida hayot muammolari talqini.**
- 3.Said Ahmadning «Kelinlar qo'z²oloni» komediyasidagi obrazlarga tavsif bering?**
- 4. «Ufq» trilogiyasining yaratilishi va uning tarkibidagi romanlar haqida ma'lumot bering?**
- 5. «Ufq» romanida xalq obrazi va tarixiylik qanday yoritib**

berilgan ?

6.Said Ahmadning «Jimjitlik» romanida qanday masalalar qalamga olinadi?

7. «Jimjitlik» romanining mavzusi asarning mazmuni bilan qanday boʻlangan?

MAVZU : ASQAD MUXTOR HAYOTI VA FAOLIYATI
(1920-1997)

R E J A :

- 1.Asqad Muxtor tarjimai holiga bir nazar.
- 2.She'riyatdan boshlangan ijod.
- 3.Asqad Muxtor hikoya va qissalari.
- 4.Roman janridagi muvaffaqiyatlari : «Tuʻilish», «Chinor», «Davr mening taqdirimda» asarlari haqida .
- 5.Asqad Muxtorning tarjimonlik faoliyati.

ADABIYOTLAR:

- 1.Asqad Muxtor Asarlar .Toʻrt tomlik.T., Gafur Gulom nomidagi nashriyot,1980 -1983y.
- 2.Asqad Muxtor Opa –singillar. Oʻzbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti,T.,1958 y.
- 3.Asqad Muxtor. Chinor.T.,1975 y.
- 4.B.Soimov.Asqad Muxtor prozasi.T., «Fan», 1969.
- 5.O.Toʻaev.Asqad Muxtor. T.,1966 y.
- 6.O.Sharafiddinov. Ijodning katta yoʻlida. «Birinchi moʻjiza» kitobida.T.,GafurGulom nomidagi nashriyot, 1979 y.

7.Naim Karimov davr ijodkor taqdirida (Asqad Muxtorning 80 yilligiga).Til va adabiyot ta'limi. 2000 y.6-son,35-bet.

XX asr o'zbek adabiyotiga o'zining sobit qadamlari bilan kirib kelgan serqirra ijrodkorlardan biri Asqad Muxtordir.

Asqad Muxtor 1920 yilda Far²ona viloyatida ishchi oilasida tavallud topdi.Otadan erta etim qolgan Asqad Muxtorning bolaligi bolalar uyida o'tdi.O'sha yillari mamlakatda hayot o'ir,ocharchilik hukmron edi.Asqadning she'riyatga ixlosi balandligi yoshligidanoq sezilib,ilk mashqlari mahalliy matbuotda, «Lenin uchquni» gazetasida chop etilgan. U maktabni tugatgach,Toshkentda jurnalistika kursida tahsil oldi.

1943-1945 yillarda Andijondagi pedagogika institutida mehnat faoliyatini boshladi.Keyinchalik Samarqand Davlat dorilfununida,Toshkentdagi O'rta Osiyo Davlat dorilfununida tahsil oldi.Bu erdagi muhit ko'lami o'tkir ijodkorlardan G.Gulom,Oybek,H.Olimjon,M.Shayxzoda,Mirtemir,zamondoshlari Shuhrat,Shukrullolarning ijodiy tajribalaridan bahramand bo'lib,adabiyotga shoir o'ziga xos uslub bilan kirib keldi.

Asqad Muxtorning 1966 yilda «She'rlar» to'plami e'lon qilindi.To'plamda «Umr» , «Bo'2im», «Nihol», «Tong», «O'zak», «Galaba ishonchi», «So'inish» kabi katta she'rlari kiritilgan, ularda hayot go'zalligini,insoniy fazilatlarni, davrning dolzarb muammolarini tarannum etadi.

Quyidagi «Umr» haqidagi she'rni o'qigan kitobxon esa o'z umrini sarhisob qilib, chuqur xayollarga berilishi tabiiy:

Hamma kunlar

Butun hayot

Ish uchun

Kurash uchun.

**Oxirgi kun –
Odamlardan
Rozilik so'rash uchun.**

**Nimanidir
Boshlash kerak
Nimanidir
Tugallash,
Nimanidir
Tashlash kerak,
Nimanidir
Egallash.**

**Ikki qudrat:
Quyosh, idrok
Ijod etar er uzra
Shunday so'ngsiz
Koinotda
Hayot degan mo'jiza
Ularga vaqt berilmagan
Bir nafas uxlash uchun.**

**Qalb talpinar
Oylar, yillar,
To'satdan to'xtash uchun
Yozish,o'girish kerak,
Nimanidir tushunish.**

**Kimnidir kechirish kerak,
Kimdan avf,o'tinish**

**Bariga bugun ulgur,
Chunki umr deganlari
Bamisli otilgan o'q.
Uni o'tday yondirib qo'y,
Dunyoda qolish uchun.**

**So'nggi soat –
Odamlardan
Rozilik olish uchun**

Ixcham she'rlar,kichik hikoyalar yozish bilan ijodini boshlagan Asqad Muxtor o'zbek qissachiligi va romanchiligiga katta asarlari bilan hissa qo'shdi.

Uning Bekobod safarida yaratilgan «Po'lat quyuvchi», «Daryolar tutashgan joyda» qissasi, «Po'lat shahri» asarlari jurnalistik mahoratini namoyon etdi.

1956 yilda Asqad Muxtor «Hayotga chaqiriq» nomli ocherk va hikoyalar to'plamini nashr ettirdi.Undagi «Do'st», «Xayri», «Oksana» kabi hikoyalari ijodkorning mahorati sayqallanib o'sib borayotganidan darak beradi.Shu yillar «Hamshaharlarim» (1949), «Rahmat mehribonlarim» (1954 y), «99 miniatyura» (1962), «She'rlar» (1966), «Quyosh belanchagi» (1971), «Sizga aytar so'zim» (1978) , «Sirli nido» kabi she'riy kitoblari ketma –ket chop etildi.

Asqad Muxtor qardosh Qoraqalpoq xalq hayotiga ba'ishlangan «Qoraqalpoq qissasi» povestini 1958 yilda yaratdi.

Adibni elga tanitgan birinchi yirik asari 1955 yili nashr etilgan «Opa-singillar» romanidir. Ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'lgan bu asar xotin-qizlar haq-huquqlari, ularning jamiyatdagi o'rnini ko'rsatib berilganligi bilan ahamiyatlidir .

Shundan keyin, Asqad Muxtorning «Tu'zilish»(1961), «Davr mening taqdirimda» (1964, «Uch fasl dostoni» deb ham atalgan), «Chinor» (1969), «Bo'ronlarda bordek halovat» (1976), «Buxoroning jinko'chalari» (1980), «Jar yoqasidagi chaqmoq» (1982), «Amu» (1984), «Kumush tola» (1987) kabi qissa va romanlari kitobxonlrga taqdim etildi.

XX asrning 70 yillarida yaratilgan «Chinor» romani o'quvchini hayot falsafasi haqida keng mushohada yuritishga chorlaydi.

Asarning bosh qahramoni qilib Ochil buva obrazi olingan bo'lib,u o'zbek xalqining ma'naviy qiyofasi sifatida tasvirlangan. Romanning nomi ham ramziy ma'noda bo'lib, Chinor inson umriga, uning qilayotgan yaxshiligu saxovatlariga mengzaladi.

Asqad Muxtor tarjima borasida ham o'z uslubiga ega bo'lgan ijodkor.U Sofokl'ning «Shoh Edip» tragediyasini,Isaakiyanning «Al-Maarriy» asarini, Shekspir va Shiller tragediyalarini, A.Pushkin, M.Lermontov, A.Blok, V.Mayakovskiy va K.Simonov asarlarini mahorat bilan o'zbekchaga o'giran.

Xulosa qilib aytganda,Asqad Muxtor ijodi keng ko'lamligi bilan o'z o'quvchisini mushohada yuritishga undaydi.Uning so'nggi asarlaridan biri bo'lgan «Tundaliklar» kitobidagi qisqa fikrlar katta va boy mazmunni kashf etgan.

MAVZUGA OID TAYaNCh TUShUNChALAR:

Chinor - po'sti ko'kish,panjasimon shapaloq bargli, uzoq umrli, sersoya katta daraxt.

Davr. 1.Jamiyat taraqqiyotida muhim voqea,hodisa yuz bergan,hukm surgan yoki o'ziga xos xususiyati bilan ajaralib turadigan ma'lum vaqt oraliqi.

2.Kishi yoki kishilik hayotida ma'lum vaqt ; yillar .Biror avlod yashagan yoki yashayotgan vaqt,zamon,zamona.

Taqdir 1.din.Go'yo oldindan belgilab qo'yilgan, peshanaga yozilgan ko'rgilik; yozilish,qismat.

2.Kelajak; Oqibat,istiqbol .

TOPSHIRIQLAR:

- 1.**Asqad Muxtorning tarjimai holi haqida nimalarni bilasiz?
- 2.**Asqad Muxtor she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
- 3.**Adibning qaysi romani hikoyat,rivoyat qissalardan iborat?
- 4.** «Chinor» romanining bosh mavzusi va asosiy qahramonlari haqida gapiring.
- 5.**Asqad Muxtor qaysi adiblarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan ?
- 6.** «Umr» haqidagi she'rini o'qib xayolingizdan nimalar kechdi?

MAVZU: MIRMUHSIN HAYOTI VA IJODI.

(1921 yilda tug'ilgan)

REJA:

- 1.**Mirmuhsinning adabiy –madaniy hayotdagi faoliyati.

- 2.Mirmuhsinning she'r va dostonlari.
- 3.Mirmuhsin iste'dodli romannavis.
4. «Me'mor», «Temur Malik» romanlari haqida ma'lumot.

ADABIYOTLAR:

- 1.Mirmuhsin.Tanlangan asarlar .Uch tomlik.T.,Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,1971 y.
- 2.Mirmuhsin. Umid T.,1983 y.
- 3.Mirmuhsin .Temur Malik. «Sharq» nashriyoti,T.,1996 y.
- 4.Mirmuhsin. O'qiladigan asarlar ko'payadi. O'z AS,2000 yil, 1 yanvar
- 5.Mirmuhsin.Nonimiz butun.O'zAS, 2002 yil,9-avgust.
- 6.Nosir Fozilov.Yaxshilar yodi.O'z AS,2001 yil,11-may.
- 7.Mirmuhsin. Sarhisob.O'Z AS,2002 yil,1-yanvar
- 8.Mirmuhsin.Me'mor. «Sharq» nashriyoti,T.,2001 yil.

«Insonga qisqa umr berilgan,lekin adib baribir shoshilmasligi kerak» -degan fikrlari iste'dodli adib Mirmuhsinning hayoti va ijodining ma'lum ma'noda yo'nalishini belgilab bergan bo'lsa ajab emas.

Mirmuhsin uzoq yillik ijodiy faoliyati bilan adabiyotimiz rivojiga samarali ta'sir ko'rsatdi.Serqirra ijodkor sifatida bir qancha she'rlar,ballada va dostonlar yozdi,o'zbek adabiyotida ilk bor she'riy roman janrida asar bitdi,hikoya, qissa va hajviy asarlarga mualliflik qildi.

Mirmuhsin adabiy-madaniy hayotda ham faol ishtirok etdi.

Respublika Yozuvchilar uyushmasida ishladi, «Sharq yulduzi», «Mushtum» jurnallarida muharrirlik qilgan.Bir qancha muddat «Guliston» jurnalida bosh muharrir, «O'zbekiston ovozi» gazetasining adabiyot bo'limida,radioda ishladi.

Mirmuhsin: «Xalqimiz badiiy adabiyotimizning boshqa shaklidagi asarlari bilan bir qatorda qadimdan doston o'qish va tinglashni sevadi. Yozma yoki o'zaki dostonlarimiz xalq ichida keng tarqalgani hammaga ma'lum. Men ham ana shu ulu' an'anaga havas bilan qarab, doston janrini juda sevdim. Qo'limdan kelganicha yozdim va ularning soni katta-kichik bo'lib yigirmaga etibdi» –deya doston janriga munosabati haqida gapirib, fikrini amalda isbotladi. Haqiqatdan ham, keng kitobxonlar adibning «Usta Giyos», «Qadrdonlar», «Do'nan», «Yashil qishloq», «Abdulla Nabiev», «Qamar», «Avesto», «Bobur va bir tilim Far'ona qovuni», «Ziyod va Adiba», «Shiroq» kabi qator dostonlari bilan tanish.

Mirmuhsin o'z ijodida xalq hayotining real manzaralarini xolisona tahlil etishga, mehnatkash va zahmatkash odamlar turmushini tabiiyligi bilan ko'rsatib berishga harakat qiladi. Shuning uchun ham uning barcha asarlari qahramonlari oddiy, kamsuqum, mehnatkash odamlardir.

Yozuvchini elga tanitgan asari «Umid» romani bo'ldi. Romanni kitobxonlar zo'r qiziqish bilan qarshi olishdi. Ayniqsa, bosh qahramon Umid taqdiri, boshidan kechirgan ruhiy iztiroblari o'quvchini hayotda duch keladigan ziddiyat va muammolarni aql bilan hal etishga, inson hayotida adashmasdan o'z o'rnini topishi lozimligi haqidagi chuqur mushohadalarga undaydi.

Mirmuhsin «Degrez o'2li» , «Ildizlar va yaproqlar», «Chotqol yo'lbarisi», «Ilon o'chi» kabi bir qator romanlarida ham davrning muhim masalalarini yoritib bera oladi.

Yozuvchining zamondoshlari hayoti bilan birga tarixiy mavzuda qalam tebratishi kitobxonlarni tariximizni ayrim sohalarini bilib olishlariga imkoniyat yaratdi. Uning qadim Shiroq afsonasi asosida yaratgan «Shiroq» dostoni, Bobur haqidagi balladasi, «Oq marmar», «Cho'ri», «Me'mor», «Temur Malik», «Movarounnahr» singari qissa va romanlarida

xalqimizning o'tmish hayoti haqida bahs yuritiladi.Xususan, «Me'mor» va «Temur Malik» romanlarining o'zbek adabiyotida alohida o'rni bor.

«Me'mor» romani temuriylar davri hayotiga ba²ishlab yozilgan.Asarga bosh qahramon qilib olingan Najmiddin Buxoriy – mashhur me'mor obrazi orqali ijodkor bir qator me'morlar hayotini ko'rsatib berdi.Maktab darsliklariga romandan parchalar kiritildi, rus tiliga tarjima etilib, bir necha nusxada chop etildi.

Mirmuhsinning keyingi tarixiy mavzudagi mashhur romani «Temur Malik»dir.Asarni yaratilishi haqida adibning o'zi shunday degan edi: «. . . Ko'p yillar mobaynida tarix sahifalarini varaqladim, ona tuproq, ona yurt saodati yo'lida kurashib, qurbon bo'lganlar haqida kitob yozish niyatim edi .Moziydagi mislsiz vatanparvar bahodirlardan biri Temur Malik jasorati doimo diqqatimni jalb etib kelardi».Ana shu niyat samarasi o'laroq bu roman yozildi.Asar 1985 yili «Sharq yulduzi»da ,1986 yili alohida kitob holida chiqdi. Rus tilida Moskvada «Xo'jand qal'asi» nomi bilan nashr etilgan.

Romanda Temur Malikning dushman hujumiga qarshi olib borgan jasoratli kurashlari,Xo'jand qal'asini mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlari juda jonli tarzda hikoya qilinadi. Asarga tarixiy shaxslar bilan birga to'qima obrazlar ham kiritilgan bo'lib, ma'lum tamondan asarning ²oyaviy mazmunini to'ldirishga xizmat qilgan.

MAVZUGA OID TAYaNCh TUShUNChALAR:

Me'mor - binokor, arxitektor.

Temur Malik – 1189-1233 yillarda yashagan,mo'²ullarga qarshi kurashgan tarixiy shaxs.

Degrez - Qozon,omoch tishi va boshqa cho'yan asboblari kuyuvchi usta.

- Umid.1.Biror istakning amalga oshishiga bo'lgan ishonch,ishonch bilan kutish ;e'tiqod**
- 2.Orzu,istak;niyat,maqsad.**
- 3.Umid (erkaklar ismi).**

TOPShIRIQLAR:

- 1.Mirmuhsinning adabiy va madaniy hayotdagi faoliyati haqida gapiring?**
- 2.Shoir she'rlariga xos xususiyatlar nimada?**
- 3.Mirmuhsinning nomini elga tanitgan asari qaysi va asar qaysi tillarga tarjima qilingan.Adib bu asari uchun qanday taqdirlangan?**
- 4.Mirmuhsinning tarixiy mavzuda asar yozishining sabablari nimada?**
- 5. «Me'mor». «Temur Malik» romanlarining yaratilishi va asar personajlari haqida ma'lumot bering.**

MAVZU: ShUKRULLO YuSUPOVNING HAYoTI VA IJODI
(1921 yilda tu²ilgan)

REJA:

- 1.Shukrullo tarjimai holi haqida.**
- 2.Shukrullo ijodining bosh mavzusi «Inson va yaxshilik» ekanligi.**
- 3.Shukrullo dostonlari.**

4.Shukrullo tarjimalari.

5.Shukrullo dramalari.

ADABIYOTLAR:

1.Shukrullo.Javohirlar sandi²i.T.,1978 y.

2.Shukrullo.Kafansiz ko'milganlar.T., «Mehnat»,1991 y.

**3.Umrboqiylik.Shukrullo ijodining turfa qirralari. «Yozuvchi»,
2001 y .**

4.S.Mirvaliev.O'zbek adiblari.T., «Fan», 1993 y.

5.Shukrullo. She'r quvonchi.O'zAS,2000 y, 20 aprel.

Shukrullo (Shukrullo Yusupov) 1921 yili Toshkentda tu²ilgan.Otasi qishloq va shaharlar oralab emchilik qilgan, onasi esa ham dunyoviy ham diniy ilmlar bilimdoni bo'lgan.

Shoirning xotirlashicha, oilada o'tkazilayotgan she'rxonlik kechalari,onasi va opasining muallimaligi, otasining maktab mudiri ekanligi uni ijodning sehrli olamiga undagan.

Uning ilk she'riy mashqlari 1934 yili maktab devoriy gazetasida bosilgan.Shukrullo 1938 yili pedagogika bilim yurtini tugatgan. Qoraqalpo²istonning Qo'n²irot tumaniga yo'llanma bilan ishga yuboriladi.Keyinchalik u Toshkentga qaytib, pedagogika institutining kechki bo'limida o'qishi bilan bir paytda maktabda o'zbek tili va adabiyotidan dars berdi.

Shukrulloning ilk she'rlari 1939 yili Respublika matbuotida chop etildi,1942 yili esa «Lo'lilar» dostoni,1941 yili Maksim Gorkiyning Volga bo'ylab sayohati to'2risida poemalari yaratildi.Birinchi she'rlari «Birinchi daftar» nomi bilan 1949 yili nashr etildi.

Adibning «Chollar», «Rossiya», «Asr bahsi» kabi asarlari adabiyotimizni sermazmun dostonlar bilan boyitdi.

Shukrullo asarlarining asosiy mazmunini inson va buyuklik tushunchasi, ezgulik, olijanoblik, qadr- qimmat tuy²ulari tashkil etadi.

Ayniqsa,uning she'riyatida bu sifatlar ko'zga yaqqol tashlanib turadi. «Inson», «Umrin boricha», «Inson inson uchun», «Inson va yaxshilik», «Suyanchiq» to'plamlariga kirgan barcha she'rlarida yaxshilik mayoq qilib olinadi.

Shukrullo tarjimachilikda ham samarali qalam tebratdi.Rus she'riyatidan A.Voznetsenskiy, E.Evtushenko, R.Rojdestvenskiy asarlarini, Boltiq bo'yi adabiyotidan E.Mejelaytis,R.Hamzatov, Q.Quliev,D.Qu²ultinovlarning she'rlarini mahorat bilan o'zbekchaga o'girdi.

Shukrullo qalamiga mansub «Xatarli yo'l» (1963), «Tabassum o'zrilari» (1965), «To'ydan keyin tamosha» (1974), «Unsiz faryod» (1990), «O'zini qaroqchi urdi» (1987) kabi pe'sa va dramatik asarlari siyohi qurimay teatr sahnalarida o'z aksini topdi.

Adibning qato²on yillari fojialari haqida bitilgan «Kafansiz ko'milganlar» asari kitobxonni o'tmishimizning ayrim chirkin sahifalari haqida xabardor etdi. Asar Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan.

Xullas, Shukrullo ijodining o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'rni bor.

MAVZUGA OID TAYaNCh TUShUNChALAR:

Sho'ro –sovet.Sho'rolik hukumati .

Lo'lilar –asli hindlardan tarqalgan va dunyoning ko'p joylarida to'dalashib,ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi hayot kechiruvchi xalq.

Suyanchiq -o'rindiqlarning suyanish yoki tirsaklarni tirab o'tirish uchun xizmat qiladigan qismi; ko'chma .Suyanch.

Kafan –ko'mish oldidan murdani o'raydigan oq mato; qabr libosi.

Javohir . 1.Qimmatbaho tosh ; qimmatbaho toshlar.

2.Ko'chma .Qimmatbaho narsa.

TOPSHIRIQLAR:

- 1.Shukrulloning tarjimai holi haqida nimalarni bilasiz?**
- 2.Shukrullo ijodiga ta'sir etgan omillar nimada?**
- 3.Shukrullo ijodining bosh mavzusini nimalar tashkil etadi?**
- 4.Adib ijodida qat'iyon yillari.**
- 5.Shukrullo tarjimalari.**
- 6.Adibning qanday dostonlari bor?**
- 7. «Javohirlar sandiq», «Kafansiz ko'milganlar» asarlarida ilgari surilgan o'zga va mavzusi haqida so'zlang?**

MAVZU : ODIL YOQUBOV HAYOTI VA IJODI

(1927 yilda tug'ilgan)

REJA:

- 1.Adibning hayoti va ijod yo'li haqida ma'lumot.**
- 2.Odil Yoqubovning ijodkor va jamaot arbobi sifatidagi faoliyati.**
- 3.Odil Yoqubov hikoya va qissalari.**
- 4.Odil Yoqubov –iste'dodli romannavis:**
 - a)Zamonaviy mavzudagi romanlari;**
 - b)Tarixiy mavzudagi romanlari;**

ADABIYOTLAR:

- 1.Odil Yoqubov.Saylanma.Uch jildlik .Toshkent.,G.Gulom nomidagi nashriyot,1985-87 yil.**
- 2.Odil Yoqubov.Diyonat. «Sharq», T.,1998 y.**

- 3.Odil Yoqubov.Er boshiga ish tushsa.G.Gulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti ,T., 1969 y.
- 4.Odil Yoqubov.Izlayman.T.,1972 yi.
- 5.Odil Yoqubov.Oq qushlar, oppoq qushlar.G.Gulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyot, T.,1988 y.
- 6.Odil Yoqubov .Vatanga munosib yo'llar.O'zAS,2001 y,22 iyun.
- 7.H.Karimov.Ijod va iste'dod .Adabiy portretlar, T.,1986 y.
- 8.H.Karimov.Davr qahramon taqdirida.T.,1987 y.
- 9.O.Sharafiddinov.Ijod dovonlari osha. «Birinch mo''jiza» kitobida, T., G.Gulom nomidagi nashriyot.1979 y.
- 10.U.Normatov.Davr tuy²usi, T.,1987 yil .
- 11.U.Normatov. Qalb koshona sirlari. (Odil Yoqubovning «Bir koshona sirlari» dramasi haqida o'ylar) O'zAS,2001 y,2 mart.
- 12.Q.Yo'ldoshev. Inson tuy²ularining teran talqinlari. Atoqli adib Odil Yoqubov ijodiga bir nazar. O'z AS, 2004 yil, 16 aprel.
- 13.Mixli Safarov. Haqiqatgo'y adib. O'z AS, 1998 yil, 15 may.

Odil Yoqubov XX asr o'zbek adabiyoti ravnaqiga hissa qo'shgan iste'dodli ijodkordir.Taniqli tadqiqotchi H.Karimov Odil Yoqubov haqida fikr yurita turib; «Yozuvchi iqtidori inson ruhiy olamini qay daraja tahlil qilaolganligi, uning serqirra va murakkab faoliyatini qay darajada ochib bera olganligi va tasvirlay olganligi, shuningdek, o'zi qalamga olgan voqea-hodisalar zaminida kishilarga qanday yangi gap aytolganligi bilan belgilanadi» deganlarida to'la haq edilar.Bu talablarga Odil Yoqubov ijodi to'la javob bera oladi.

Odil Yoqubov 1927 yili Turkiston shahri yaqinidagi Qarnoq qishlo²ida tu²ilgan. Otasi Egamberdi Yoqubov 1916 yili mardikorlikka olinib, Bellorussiya o'rmonlarida daraxt kesgan, rus tilini

o'rganib,Toshkentda SAGU ni bitirgach,Chimkentda turli lavozimlarda ishlagan.

Otasi Odiljonni rus maktabiga o'qishga bergan, yoshligidan rus tilini puxta o'rgangan, bu esa bo'l'usi adibni rus va jahon adabiyoti bilan tanishishiga imkon yaratgan.

Odil Yoqubov urushning so'nggi yili harbiy xizmatga chaqiriladi, besh yil Port-Artur yaqinidagi Chan -Chjau shahrida xizmat qiladi.1951-56 yillarida Toshkent Davlat universitetining filologiya fakul'tetida o'qiydi. O'n yil davomida «Literaturnaya gazeta»ning O'zbekiston bo'yicha muxbiri, G.Gulom nomidagi nashriyotda muharrir, «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasida bosh muharrir, respublika yozuvchilar uyushmasining boshqaruvining birinchi kotibi, Vazirlar mahkamasi qoshidagi Respublika atamashunoslik qo'mitasi raisi bo'lib ishladi. Albatta, adibning ijtimoiy hayotdagi bu faoliyati uning ko'plab asarlarining yaratilishiga zamin hozirladi. Hayotda ko'rgan, guvohi bo'lgan voqea-hodisalari xalq turmushining haqqoniyliigi bilan tasvirlash imkonini berdi.

Odil Yoqubovni elga tanitgan asari «Muqaddas» qissasi bo'ldi. Qissa kitobxonlar, ayniqsa,yoshlar tomonidan juda iliq qarshi olindi. Yozuvchi ikki yosh Muqaddas va Sharifjonning mustaqil hayot ostonasidagi ilk qadamlari, quvonch va tashvishlarini shunchaki bayon qilmaydi,balki o'quvchini hayajonga soladigan darajada qahramonlarning ruhiy kechinmalarini etuk badiiy tilda aks ettirib berolgan.

«Muqaddas» qissasining nomlanishida ham ramziy ma'no jamlangan.Asar 2oyasidan kelib chiqadigan asosiy xulosalar ham qissaning nomlanishiga ishoradir.Adib insoniyat uchun eng qadrli va aziz,mo''tabar ezgu tuy2ularni –diyonat,adolat,iymon –e'tiqod, vijdon, qadr -qimmat kabi 2oyalarni qissa mazmuniga singdirib yuborgan.Bu kabi sifatlar Odil Yoqubovning qator asarlarining bosh 2oyasini tashkil etadi.

Odil Yoqubov «Bir fel’eton qissasi» (1963), «Qanot juft bo’ladi» (1968), «Billur qandillar» qissalari, «Er boshiga ish tushsa» (1966) romanida ham har qanday adaolatsizlik, qalloblikka qarshi mardona kurasha oladigan, xususan urush yillarida –oʻir sharoitda kattalar bilan yonma- yon turib jamoat ishlarida faol ishtirok etayotgan yoshlar obrazini yaratdi.

Yozuvchining zamondoshlari hayotidan olib yozilgan «Diyonat», «Oqqushlar, oppoq qushlar», «Adolat manzili», tarixiy mavzudagi «Ulu²bek xazinasini», «Ko’hna dunyo» asarlari o’zbek adabiyotini ma’lum pa’ona yuqoriga ko’tarilishiga sabab bo’ldi.

Taniqli adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo’ldoshev Odil Yoqubovning «Ulu²bek xazinasini» romani haqida shunday fikrlarni bayon qiladi: «O. Yoqubovning romanchiligi zamonaviy o’zbek nasrining badiiy tasvir imkoniyatini, ko’rku salobatini ko’rsatishi bilan xarakterlidir. «Ulu²bek xazinasini»da yozuvchi asar qahramonlari boshidan kechirgan voqealarni ko’rsatishga emas, balki ularning ichki dunyosini ochish asnosida Ulu²bek davrining badiiy manazarasini chizishga e’tibor beradi. Ma’lumki, hayotga faol aralashgan kishilar hamisha ziddiyatlar qurshovida bo’ladi. Hukmdorlar o’z mavqelariga ko’ra jamiyat ishlariga faol munosabatda bo’lishga majburlar. Har bir inson o’z hayotidagi burilish davrlarida, kuchli qarshiliklarga duch kelganda turli-tuman o’ylarni boshidan kechiradi. Romanda bosh qahramon ana shunday o’ylar o’ushida ko’rsatiladi. . . «Ulu²bek xazinasida sadoqat va sotqinlik, shogirdlarning ustoz oldidagi burchi Ali Qushchi va Mavloni Muhiddin obrazlar misolida me’yoriga etkazib ifodalangan». Olimning roman haqidagi fikrlari hozirgi kundagi muammolarimizga qanchalik hamohang ekanligini sezish mumkin.

«Diyonat» romanida mustabid tuzum mafkurasi sharoitida yuz bergan ayrim kamchilik va nuqsonlar ochib berilgan.

Odil Yoqubov 1988-1991 yillar davomida «Adolat manzili» romanini yozgan. Roman 1994 yili «Sharq yulduzi» jurnalida, o'sha yilining o'zidayoq turk tiliga tarjima qilinib, alohida kitob holida ham chiqdi.

MAVZUGA OID TAYaNCh TUShUNChALAR:

Diyonat - Vijdon, vijdonlilik, insof;

Adolat - odilona va xolisona ish tutish, haqqoniyat, haqqoniylik, odillik.

Muqaddas. 1.din. Dindorlar tasavvurida ilohiyat bilan bo²liq bo'lgan, aziz, tabarruk.

2.Ko'chma. Sharafli, oliyjanob, jonajon.

3.Muqaddas (ayollar ismi).

TOPShIRIQLAR:

1.Odil Yoqubovning tarjimai holi haqida gapiring?

2.Adibning jamaot arbobi sifatidagi faoliyati to'²risida ma'lumot bering?

3.Odil Yoqubovning elga tanitgan qissasi.

4.Odil Yoqubovning «Ulu²bek xazinasi» romaniga Ch.Aytmatov qanday baho bergan?

5.Odil Yoqubovning «Ko'hna dunyo» polifonik romanining o'ziga xos jihatlari va obrazlari haqida nimalarni bilasiz?

6.Odil Yoqubovning «Adolat manzili» romani bosh mavzusi nima?

7.Odil Yoqubovning drama janridagi asarlari qaysilar?

8.Adibning qaysi asarlarini o'qigansiz va ular sizda qanday taassurot qoldirdi?

**MAVZU: PIRIMQUL QODIROV HAYOTI VA IJODI
(1928 YILDA TUGILGAN)**

R E J A:

- 1.Pirimqul Qodirov hayot yo'li haqida.**
- 2.Pirimqul Qodirov hikoya va qissalari.**
- 3.Pirimqul Qodirov romanlar ijodkori:**
«Yulduzli tunlar», «Avlodlar dovoni» romanlari haqida
ma'lumot.
- 4.Pirimqul Qodirov ijodining o'zbek adabiyoti ravnaqidagi o'rni.**

ADABIYOTLAR :

- 1.Pirimqul Qodirov.Saylanma.Uch jildlik.T.,Gafur Gulom**
nomidagi nashriyot,1987-1988 yil.
- 2.Pirimqul Qodirov.Avlodlar dovoni.T.,Gafur Gulom nomidagi**
nashriyot,1989 yil.
- 3.Pirimqul Qodirov.Yulduzli tunlar.To'ldirilgan yangi nashri.**
«Sharq» nashriyoti,T.,2002 yil.
- 4.Pirimqul Qodirov.Meros.Qissa va hikoyalar.T.,1983 yil.**
- 5.Pirimqul Qodirov.Olmos kamar.Adabiyot va san'at nashriyoti,T.,**
1983 yil.
- 6.Pirimqul Qodirov.Uch ildiz.Adabiyot va san'at nashriyoti,T.,**
1970 yil.
- 7.Pirimqul Qodirov.Humoyun va Akbar.Avlodlar dovoni.T.,**
«Sharq», 1997 yil.
- 8.Pirimqul Qodirov.Istiqlol tongining unutilmas voqealari.**
O'zAS, 2001 yil,13 iyul.
- 9.Pirimqul Qodirov. «Davron meni o'tkardi saru somondin. . . »,**

O'zAS, 2002 yil, 18 yanvar.

10. U Normatov. Haqiqatning mashaqqatli yo'li. (P. Qodirov.

«Saylanma»sining uchinchi jildida). G. Gulom nomidagi nashriyot, 1988 yil.

11. P. Shermuhamedov. Pirimqul Qodirov. (Adabiy portret).

T., Gafur Gulom nomidagi nashriyot, 1983 yil.

12. A. Kattabekov. Tarix saboqlari. T., 1985 yil

Pirimqul Qodirov XX asr o'zbek adabiyotini o'zining sermahsul ijodi –yirik asarlari bilan boyitgan adibdir.

Pirimqul Qodirov 1928 yili Tojikiston Respublikasining O'ratepa tumanida dunyoga kelgan. U Toshkent Davlat dorilfununida, keyin Moskvadagi Gor'kiy nomidagi jahon adabiyoti institutida o'qidi.

Pirimqul Qodirovni tadqiqotchi sifatida ko'proq badiiy asar tili, yozuvchi mahorati masalalari qiziqitirdi. Shuning uchun ham u uzoq yillar O'zbekiston Fanlar akademiyasi til va adabiyot institutida ishladi. «O'zbek sovet adabiy tanqidi tarixi», «O'zbek sovet adabiyoti tarixi» kabi Oliy o'quv yurtlari uchun mo'ljallab yozilgan darsliklarga ham mualliflik qildi. «Til va dil», «Xalq tili va realistik proza» nomli ilmiy risolalar yozdi.

Pirimqul Qodirovning ilk ijodi namunalari kundalik matbuot sahifalarida 40 –yillarning oxirlarida ko'ringan, 1950 yili «Studentlar» sarlavhali hikoyasi chop etildi. Adibni keng kitobxonlar ommasiga tanitgan asari esa 1957 yilda yozib tugallangan «Uch ildiz» romani bo'ldi. Asar muhokamasiga ba'ishlangan yilishda roman xususida ko'plab iliq fikrlar aytilib, A. Qahhorning yuksak bahosiga sazovor bo'ldi. «Uch ildiz» romanida adib zamon ruhini, kishilar ma'naviy olamini mohirona tasvirini bera oldi.

Pirimqul Qodirovning sermahsul ijodiy faoliyati 60-70 yillarga kelib hikoya va qissa janridagi asarlar bilan boyidi. Uning «Jon shirin», «Kayf», «Olov», «Qadrim», «Erk», «Meros», «Sarguzashtlar», «Yayra institutga

kirmoqchi» kabi hikoya va qissalari o'quvchilar tomonidan zo'r qiziqish bilan kutib olindi.

O'zbek adabiyotida adibning «Olmos kamar», «Qora ko'zlar» romanlarining o'ziga xos o'rni bor.

Zamonaviy mavzudagi asarlari orqali qalami charxlangan adib endi o'ta jiddiy va mas'uliyatli mavzu – tarixiy mavzudagi romanlar yoza boshladi. Uzoq yillik izlanishlar, betinim ijodiy faoliyat Pirimqul Qodirovni Temurxon naslining ulu² siymolari Bobur va uning avlodlari hayotiga ba'ishlangan «Yulduzli tunlar», «Avlodlar dovoni» singari asarlarini maydonga kelishiga sabab bo'ldi.

«Yulduzli tunlar» romani 1972 yili yozib tugallangan bo'lsa-da, ayrim qarshiliklar tufayli 1978 yildagina alohida kitob holida chop etilib, kitobxonlar muhokamasiga havola etildi. Asar rus tilida bosildi, boshqa chet tillarga tarjima etildi. Roman muallifiga qo'yilayotgan asossiz ayblar 1988 yili «Sharq yulduzi» jurnalida e'lon qilingan «Avlodlar dovoni» romani nashrini ham uch yilcha to'xtatib qo'ydi.

Roman yaqinda «Humoyun va Akbar» nomi bilan kitob holida nashrdan chiqarildi.

Pirimqul Qodirov: «Barkamol avlod tarbiyasi uchun Alisher Navoiy va Bobur Mirzo kabi ulu² ajdodlarimizning hayotiy tajribasi hamda ijodiy merosini o'rganish, ularning ibratli jihatlarini o'zlashtirish oldimizda turgan dolzarb vazifalardandir. Bu vazifani astoydil ado etish uchun mumtoz adabiyotimizning hali o'rganilmagan badiiy til xazinalarini ochish zarur. Kitobxonlar ommasi bu xazinalar eshigini ochadigan kalitlarga ehtiyoj seza-dilar» degan fikrlari bilan istiqlol davri adabiyotida ijodkorlarning oldida turgan mas'uliyatli vazifalariga oydinlik kiritdi. Xolbuki, o'zbek adabiyotida Pirimqul Qodirov o'z fikrlarining bir qadar uddasidan chiqqan iste'dodli ijodkordir. Tarixiy mavzudagi asarlari bilan kitobxonni uy²onish davrining ulu² siymolari hayoti va ijodiy faoliyati bilan

yaqindan tanishtirdi. Zero, ulu² ajdodlarimiz hayotiy tajribalari, ijodiy merosi orqali yoshlarni tarbiyalashdek eng dolzarb mavzular istiqloq davri o'zbek adabiyoti oldida turgan katta va ulu² vazifadir.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirov ijodiy mehnati hukumatimiz tomonidan munosib bahosini olgan.

«Yulduzli tunlar» romani uchun adib 1982 yilda Hamza nomidagi respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

MAVZUGA OID TAYaNCh TUShUNChALAR:

Dovon.1.To² yoki tepalikning oshib o'tsa bo'ladigan qulay joyi, oshuv.

2.Ko'chma.Keyingi yillarga yo'l ochib beradigan katta,ulkan ish; qiyin marra.

Meros. 1.Marhumdan vorislarga qolgan mulk.

2.Ajdodlardan avlodlarga qolgan ilmiy,adabiy,madaniy boylik.

Insof. Adolat va vijdon amri bilan ish tutish tuy²usi va qobiliyati,ishda,kishilarga munosabatda halollik,to'²rilik, vijdon.

Erk. 1.Kishining yoki kishilarning o'z hohishi bilan ish -harakat qilish huquqi: ixtiyor mayl.

2.Siyosiy, iqtisodiy, huquqiy jihatdan mustaqillik; erkinlik, ozodlik, hurriyat.

TOPShIRIQLAR:

1.Pirimqul Qodirovning ijodiy va ijtimoiy faoliyati to'²risida ma'lumot bering?

2.Adibning «Qora ko'zlar» romanining nomlanishida qanday ramziy ma'no bor?

3. «Uch ildiz», «Olmos kamar» asarlarida Pirimqul Qodirov

- hayotdagi qanday muammolarni bosh mavzu sifatida olgan?
4. «Jon shirin» hikoyasi, «Erk», «Meros» qissalarini birlashtirib turgan umumiy jihatlar nimada?
 5. «Yulduzli tunlar» romanining yaratilishi va obrazlari haqida fikr yuriting. Asarda Bobur siymosi qanday namoyon bo'ladi?
 - 6.«Avlodlar dovoni»dagi voqealar qaerda bo'lib o'tadi?
 - 7.«Avlodlar dovoni» romanining ma'naviy –ma'rifiy ahamiyati nimada ?
 - 8.Akbarni shoh sifatida nom qozonishida Hamidabonuning o'rnini qanday izohlaysiz?

MAVZU: ERKIN VOHIDOV HAYOTI VA IJODI
(1936 yilda tug'ilgan)

R E J A :

- 1.Hozirgi o'zbek she'riyati ravnaqida Erkin Vohidov ijodining o'rni.
- 2.Erkin Vohidov tarjimai holi.
- 3.Erkin Vohidov she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari.
- 4.Erkin Vohidov dostonlari : «Nido», «Ruhlar isyoni».
- 5.Erkin Vohidov –mohir dramaturg.
6. Erkin Vohidov tarjimalari.

ADABIYOTLAR:

1. Erkin Vohidov. Dostonlar. G.Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. T., 1973 yil.

2. Erkin Vohidov. Sadoqatnoma. T., 1985 yil.
3. Erkin Vohidov. Ruhlar isyoni. G. Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. T., 1980 yil.
4. Erkin Vohidov. Saylanma. Ikki tomlik. G. Gulom nomidagi nashriyot. T., 1986 yil.
5. Erkin Vohidov. Iztirob. T., «O'zbekiston», 1992 yil.
6. Erkin Vohidov. Shoiru she'ru shuur. T., «Yosh gvardiya», 1987 yil.
7. Erkin Vohidov. Yaxshidur achchiq haqiqat. T., «Nur», 1992 yil.
8. Erkin Vohidov. Yangi asr ostonasidagi o'ylar. O'zAS, 2000 yil, 22-dekabr.
9. R. Ino'omov. Shoir bo'lish osonmas. T., G.Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1996 yil
- 10.O.Abdullaev .Tong nafasi.Sharq yulduzi,1983 yil, 9-son.
- 11.I.Yormatov .Sohillar shukuhi.T., «Yozuvchi», 1994 yil.
- 12.M.Hoshimova .She'riyatdagi milliylik. Til va adabiyot ta'limi,1988 yil,1-son.
- 13.O'zbekim «Vatan» seriyasi T., 1992 yil.

El ustozim men esam –tolib !

So'z durlarin termogdir ishim.

Odamlarning o'zidan olib

Odamlarga bermoqdir ishim –

Misralarining bitilganiga ham bir necha yillar o'tdi. Biroq shu yillar davomida sevimli shoirimiz Erkin Vohidov xalqning shodligu quvonchlariga, qay²u –anduhlariga, dardlariga sherik bo'lib, «haq so'zni aytish qiyin bo'lgan zamon» larda ham kitobxonlarga ma'naviy madad

bo'ladigan asarlar yaratdi. Shuning uchun ham Erkin Vohidov ijodining o'zbek adabiyotida o'ziga xos- alohida o'rni bor.

Erkin Vohidov 1936 yilning 28 dekabrda Far²ona viloyati- ning Oltiariq tumanida o'qituvchi oilasida dunyoga kelgan.Otasi Cho'yonboy, onasi Roziyaxon qishloq o'qituvchilari bo'lishgan.Shoir ota-onasidan erta ajraladi. Ular vafotidan keyin shoir to²alari qo'lida tarbiyalangan. To²alari Sohboevlar juda madaniyatli, adabiyot va san'atga ishtiyoqi baland, taniqli jamoat arboblari bo'lishgan.Bo'lajak shoir dunyoqarashining shakllanishida oiladagi sharoit juda katta ta'sir ko'rsatgan.

She'riyatga bo'lgan qiziqish Erkin Vohidovni shoir Gayratiy rahbarligidagi to'garakka etaklab keladi.Shoirning o'smirlik yillari haqida xotiralarida aytishicha, Gayratiy to'garagi va to²alari xonadonida bo'lib turadigan adabiy suhbatlar, Mirtemir seminari she'riyat olamiga kirib kelishida bosh turtki bo'lgan.

Erkin Vohidov 1955-1960 yillari Toshkent Davlat universiteti filologiya fakul'tetida ta'lim oldi. O'quvchilik yillaridayoq she'rlari gazeta va jurnallarda bosildi.Ilkl she'riy to'plami 1961 yili «Tong nafasi» sarlavhasi bilan studentlik yillarida chop etildi.

Shoirning bu yillar ijodi turli ohanglarda kechdi. Ba'zan ruhiy iztirob va o'rtanishlar,ba'zan bolalarcha sho'x, o'ynoqi hazil she'rlar ham yozdi;xalq kechmishi bilan bo²liq mahzun misralar ham bitdi.

60-yillar ijodiy mahsuli «Yoshlik devoni»da jamlangan bo'lib, undagi she'rlar shoir dunyoqarashlari ifodasi bo'libgina qolmay, she'riyatimiz rivojining ma'lum bir tomonlarini ko'rinish sifatida ham ahamiyatlidir.

Odamlar,siz mening hayotim,

Har biringiz umrim parchasi

degan shoir ijodining qirralari yillar o'tishi bilan turli janrlar bilan kengayib bordi.

70-80 yillarda «Tirik sayyoralar», «Sharqiy qir²oq» she'riy kitoblari, «Nido», «Ruhlar isyoni», «Istanbul fojiasi» dostonlari yuzaga keldi. «Sen menga tegma», «Manfaat falsafasi», «Majlis qiling», «Donish qishloq latifalari» kabi satirik-yumoristik asarlari yaratildi. Erkin Vohidov shu yillar ijodida hajviy she'rlariga rivoyat -hikoyat usulini qo'llaydi. «Donish qishloq latifalari» aynan shu shaklda yozilgan.

Shoir uchun inson qalbi eng buyuk xilqat. Bu xilqatning turfa ranglari «Qalb shunday ummonki. . . » she'rida yaqqol ko'zga tashlanadi:

Qalb shunday ummonki, uning ba²rida

Dahshatli dol²alar silsilasi bor.

Qalb shunday zaminki, otash qa'rida

Vulqonlar otguvchi zilzilasi bor.

90-yillar hayotimizdagi o'zgarish va yangiliklar Erkin Vohidovning «Yaxshidir achchiq haqiqat» to'plamiga kirgan she'rlarida o'z aksini topdi.

Erkin Vohidov doston janrida ham qator asarlar yozdi. Mavzusi va uslubi jihatidan ular rang-baranglikka ega.

«Quyosh maskani», «Toshkent sadosi», «Qasida usulida», «Buyuk hayot tongi», «Choro²bon» sho'ro davrida odatga aylangan Leninni ulu²lashga qaratilgan, «Baxmal» bosmachilik harakati haqida, «Palatkada yozilgan doston» Toshkent shahridagi zilzila xususida bitilgan dostonlardir.

Shoirning haligacha o'z badiiy qimmati va hayotiy ahamiyatini yo'qotmay, o'quvchilarga ma'naviy ko'mak berib kelayotgan dostonlari ham bor. «Nido», «Ruhlar isyoni», «Istanbul fojiasi» dostonlari shular jumlasidandir.

«Nido» dostoni 1964 yili yozilgan. Doston bir necha yillardirki, maktab darsliklariga kiritilib, o'quvchilar tomonidan o'rganilib kelinadi. Albatta, doston –shoirning otasiga ba'ishlab bitilgan. Otasi – Cho'yanboy Vohidov urush qurboni bo'lgan. Asarni o'qigan kitobxon birgina shaxsning ruhiy iztirob, kechinmalarinigina emas, million-million urush qurboni bo'lgan kishilarning nidosi, etim qolgan o'zlonlarning zam'in sadosi dostonning mazmunini egallab olganini tushunadi.

Oradan bir necha yil o'tib shoirning «Ruhlar isyoni» dostoni yuzaga keldi.

Doston otashin bengal shoiri Nazrul Islom jasoratiga ba'ishlangan. «Ruhlar isyoni»-fojiiy asar. Unda Nazrul Islom kurashi, el-yurt, xalq saodati yo'lidagi matonati alamli yakun topdi.

Asarda Erkin Vohidov kurashchan shoir Nazrul Islomning fidoyiligi, isyonkor ruhini butun ulu'vorligi bilan ochib berolgan.

Erkin Vohidov XX asr o'zbek adabiyotini sermazmun asarlari bilan boyitgan, qolaversa, istiqlolimizni ulu'lovchi she'rlari bilan o'quvchilar hurmatiga sazovor bo'lgan ijodkordir

MAVZUGA OID TAYaNCh TUShUNChALAR:

Iztirob-qattiq hayajon, ruhan ezilish, siqilish. Iztirob chekmoq.

Nido-biror kayfiyatni, his-tuy'uni ifodalovchi ovoz, tovush;

Ruh. 1. Kishining ichki holatini, psixologik kechinmalarini, his tuy'ularini aks ettiruvchi kayfiyati.

2 ko'chma. Idealistik filosofiya va diniy tushunchaga ko'ra: kishi hayotida u bilan birga, vafotidan keyin esa tandan chiqib abadiy yashaydigan zam'ayritabiiy asos; arvoh.

Isyon -sinfiy, milliy, huquqiy manfaatlarni himoya qilib ko'tariladigan qo'z'olon, alayon, tuyon.

TOPShIRIQLAR:

- 1.Ekin Vohidovning bolalik va o'smirlik yillari haqida nimalarni bilasiz?**
- 2.Shoirning qaysi she'rlarini yod olgansiz?**
- 3.Erkin Vohidovning doston janridagi asarlari xususida so'zlab bering?**
- 4.Erkin Vohidovning jamoat arbobi sifatidagi faoliyati to'rtinchi qismida gapiring?**
- 5.Shoir mahorati aruzdagi she'rlarida qanday namoyon bo'lgan?**
- 6.She'riy to'plamlarining nomlarini ayting?**
- 7.Erkin Vohidovning tarjimonlik faoliyati haqida ma'lumot bering?**
- 8. «Ruhlar isyoni» dostonining yaratilishi va lirik qahramon kechinmalari.**
- 9.Erkin Vohidovning «Oltin devor» komediyasi haqida fikrlaringiz?**
- 10.Erkin Vohidovning o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga qo'shgan hisssasi.**

MAVZU : ABDULLA ORIPOV HAYOTI VA IJODI

(1941 yilda tug'ilgan)

REJA:

- 1.Abdulla Oripovning tarjimai holi haqida.**
- 2.Abdulla Oripov lirikasining o'ziga xos xususiyatlari.**

3. Abdulla Oripov dostonlari.
4. Abdulla Oripov dramalari.
5. O'zbek adabiyotida Abdulla Oripov ijodining o'rni.

ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Oripov . Tanlangan asarlar. To'rt jildlik. T., Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2002 yil.
2. Abdulla Oripov. Mitti Yulduz. T.. Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1965 yil.
3. Abdulla Oripov. Yillar armoni. T., Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984 yil.
4. Abdulla Oripov. Sohibqiron. T., Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti., 1996 yil.
5. Abdulla Oripov. Haj daftari. Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996 yil.
6. O. Sharafiddinov. She'riyat-qalb yolqini. «Hayot bilan hamnafas» kitobida. T., «Yosh gvardiya», 1983 yil.
7. M. Qo'shjonov. Onajonim-she'riyat. T., «O'qituvchi», 1984 yil.
8. I. Gofurov. She'riyat-kurashchanlik demak. T.. Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984 yil.
9. M. Qo'shjonov, Suvon Meli. Abdulla Oripov. Adabiy portret. T., «Fan», 2000 yil.
10. M. Vafoeva, D. Do'sanova. Abdulla Oripovning «Sohibqiron» dramasida frazeologizm va tasviriy vositalarnin qo'llanilishi. «Til va adabiyot ta'limi», 2002 yil, 4-son.

O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov XX asr o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biridir. Uning asarlari adabiyotimizning rivojida muhim ahamiyat kasb etdi.

Abdulla Oripov 1941 yil 21 martda Qashqadaryo viloyatining Koson tumaniga qarashli Neko'z qishlo'ida tu'ildi.

1963 yilda Toshkent Davlat universitetining filologiya fakul'tetining jurnalistika bo'limini tugatdi. 1963-1980 yillarda nashriyot va jurnallarda ishladi. Hozirgi kunda shoir O'zbekiston Yozuvchilar ushmasining rahbaridir.

Abdulla Oripovning birinchi she'rlar to'plami «Mitti yulduz» bo'lib, u 1965 yilda bosilib chiqdi. Keyinchalik yaratilgan she'rlarida shoirning dunyoqarashida falsafiy teranlik, jo'shqin lirik ohang ustivorlik qiladi:

Yashasang dunyoda yoru² yuz bilan,
Hurmat ko'rguzsang va bo'lsa izzating!
Ketsang , eslasalar shirin so'z bilan,
Yaxshi noming qolsa, qolsa yana xizimating.

Shoirning qator she'riy kitoblari e'lon qilingan: «Ko'zlarim yo'lingda» (1966), «Onajon» (1969), «Chashma», «Ruhim» (1971), «Hayrat» (1974), «Yurtim shamoli» (1976), «Najot qal'asi» (1980), «Yillar armoni» (1984), «Ishonch ko'priklari» (1989), «Munojot» (1992), «Dunyo» (1995), «Haj daftari» (1995), «Saylanma»(1996) shular jumlasiga kiradi.

Abdulla Oripov tinim bilmay ijod qilmoqda .Uni butun Respublikamiz xalqi juda yaxshi taniydi. Ayniqsa, Mustaqil O'zbekistonimiz – Vatanimiz madhi uning ijodida yorqin, haqqoniylikda o'z aksini topdi. Sevgi-muhabbat mavzuidagi she'rlari, ona haqidagi lirikasi kitobxonlar qalbida chuqur o'rin oldi:

Mushtipar ham o'zing, buyuk ham o'zing,
Kuyinchak ham o'zing, kuyuk ham,

**Olamga tatirlik suyuk ham o'zing,
Payt keldi aytmoqqa, gapning xonasi,
Ey, o'zbek onasi, o'zbek onasi.**

**. . . Sizga ta'zim qilib turibman bu payt,
Sizga baxshidadir eng shohona bayt,
Aziz Yurtboshingga duolaring ayt,
Payt keldi aytmoqqa, gapning xonasi,
Ey, o'zbek onasi, o'zbek onasi.**

Abdulla Oripov doston janrida ham sermazmun asarlar yarata oldi. Uning «Ranjkom», «Jannatga yo'l», «Hakim va ajal», dramatik dostonlari, buyuk ajdodimiz Amur Temurga ba'ishlangan «Sohibqiron» dostonlari bilan o'quvchilarimiz yaqindan tanish.

Abdulla Oripov adabiyotimizga yangicha badiiy tafakkur yo'sinlarini olib kirgan ijodkordir. U inson qalbidagi ziddiyatlarni, ruhiy holatlarni o'ziga xosligi bilan ko'rsatib berayotgan shoirdir. Shoirning «Sohibqiron» she'riy dramasi Amir Temurning 660 yilligi munosabati bilan yaratilgan bo'lib, mustaqillik davri adabiyotiga bebaho xazina bo'lib qo'shildi.

Asarda tasvirlanishicha, Amir Temur adolat uchun kurashib, jahonning qariyb yarmini zabt etib, Buyuk Turon saltanatini barpo etadi. Orttirgan boyliklarini ezgu ishlar uchun sarflaydi. El-yurt obodonchiligini o'ylab, shahar va qishloqlar, madrasalar bunyod ettirib, kanallar qazdirib, cho'lda bo'2-ro'2lar yaratadi.

Asarda Amir temur obrazi bilan birga Sulton Boyazid, Bibixonim, Amir Husayn, Ahmad Yassaviy kabi obrazlar ham jonli va ishonarli qilib tasvirlanadi.

Asardan keltirilgan Amir Temur nutqidan olingan quyidagi o'ringa e'tibor bering:

Nega ko'pdir nayrangbozu kazzob kimsalar?

Nega bosgan er yuzini buncha ko'p illat?

Men zaminni tozalashim kerak ulardan.

Ajal mudom bekinmachoq o'ynar biz bilan.

Men o'limdan qo'rqamanmi?

Ko'p chigal savol. . .

Drama so'ngida Amir Temur umr bo'yi qilgan savobu gunohlarini sarhisob etib:

Tinsiz jangu jadal bilan o'tdi hayotim,

Balki qancha umrlarga zomin bo'lganman.

Oxiratda etagimdan tutmasmi ular?-deydi.

Xullas, drama tili sodda, chuqur mazmunli, badiiy tasvir vositalarining me'yorida qo'llanilishi, shoirona fikr-mushohadalarga boyligi bilan ahamiyatlidir.

Ushbu «Sohibqiron» dramasi maktab, litsey, kollejlarda o'rganilmoqda.

Abdulla Oripov Dantening «Ilohiy komediya» asarini 28 yoshida rus tilidan o'zbek tiliga katta mahorat bilan tarjima qildi. Shoirning o'zining qator asarlari ham juda ko'plab tillarga tarjima qilingan.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi madhiyasi so'zlarining muallifi, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofotining sovrindori, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining noibi Abdulla Oripovdan kitobxonlar kelgusida ko'plab asarlar kutib qoladi.

MAVZUGA OID TAYaNCh TUShUNCHALAR:

Jannat. 1. Diniy-mistik tasavvurlarda dindor begunoh kishilarning ruhi u dunyoda rohat-faro²atda yashaydigan joy; behisht.

2.ko'chma. Hamma narsa muhayyo bo'lgan, rohatbaxsh, xushmanzara, obod joy.

Najot.1. Xalos bo'lish, qutulish. 2. Qutulish yoki qutqarish uchun zarur yordam, ko'mak.

Haj-Makka shahriga borib, zulhijja oyida belgilangan qoida va odatlarga amal qilgan holda Ka'bani tavof va ziyorat etish.

Hakim.1. O'tkir tabib; vrach, doktor. 2. Donishmand, faylasuf.

TOPShIRIQLAR:

- 1.Abdulla Oripov she'riyatining adabiyotimizni yangi bosqichga ko'tarilishidagi ahamiyati xususida so'zlang?
- 2.Abdulla Oripov jahon adabiyotining durdona asarlarini o'zbek tiliga o'giran. Ular qaysi asarlar va mualliflari kim?
- 3.Abdulla Oripov ijodida muhabbat mavzuida yozilgan she'rlar.
- 4.Abdulla Oripov lirikasida Ona haqidagi she'rlari.
- 5.Shoir ijodida Ona-Vatan mavzuining yangicha talqini.
- 6.Abdulla Oripov qanday dostonlar yozgan?
- 7.She'riy to'plamlari haqida ma'lumot bering?
- 8.«Onajon», «Tilla baliqcha», «O'zbekiston» she'rlarini yodlang.

MAVZU : ShUKUR XOLMIRZAEV HAYoTI VA IJODI

(1940 yilda tu²ilgan)

REJA:

- 1.O'zbek hikoyachiligi ravnaqida Shukur Xolmirzaevning o'rni.
- 2.Shukur Xolmirzaev tarjimai holi.
3. «O'ir tosh ko'chsa», «Hayot abadiy», «Bodom qishda gulladi» to'plamlariga kirgan hikoyalarida adib mahorati.
- 4.Shukur Xolmirzaev iste'dodli romannavis: «Qil ko'prik», «Olabo'ji» romanlari.
- 5.Shukur Xolmirzaev dramaturg.

ADABIYOTLAR:

- 1.Shukur Xolmirzaev. O'ir tosh ko'chsa. Hikoyalar va qissalar. T., 1980 yil.
- 2.Shukur Xolmirzaev. To'lqinlar. T., O'zadabiynashr. 1963 yil.
- 3.Shukur Xolmirzaev. O'n sakkizga kirmagan kim bor. . . T., «Yosh gvardiya», 1965 y.
- 4.Shukur Xolmirzaev. Hayot abadiy. T.,G.Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1974 yil.
- 5.Shukur Xolmirzaev. So'nggi bekat. T., «Yosh gvardiya», 1976 yil.
- 6.Shukur Xolmirzaev. Yo'llar, yo'ldoshlar. T., «Yosh gvardiya», 1984y
- 7.Shukur Xolmirzaev. Qil ko'prik. G.Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984 yil.
- 8.Shukur Xolmirzaev. Komil inson orzusi yoxud adabiyotning ibrat yaratish mas'uliyati haqida. O'z AS, 2001 yil, 1 yanvar.
- 9.Shukur Xolmirzaev. Aytar so'zimizga mas'ul bo'laylik. O'zAS, 2002 yil, yanvar.
- 10.Shukur Xolmirzaev. O'ttiz besh yoshda ham. . . O'z AS, 2002 yil, 6 iyul
- 11.Sanjar Sodiq. Hozirgi o'zbek adabiyoti T., «O'zbekiston», 1992 yil.

12.M.Hamidova. Bir obrazda ikki qiyofa talqini. (Sh.Xolmirzaev ning «Qil ko’prik» romanidagi badiiy mahorati misolida). O’zbek tili va adabiyoti, 2001 yil, 4-son.

Shukur Xolmirzaev zamonaviy o’zbek hikoyachiligining zabardast ijodkorlaridan biridir.

Shukur Xolmirzaev 1940 yilning 24-martida Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi Shahidlar guzarida tu’lgan.

Otasi Fayzulla Xolmirza o’2li asli Bulun2urdan bo’lib, zamona zayliga ko’ra Boysunga kelishga majbur bo’lgan. Onasi ham ilm-ma’rifatli ayol bo’lib, turli rahbarlik lavozimlarda ishlagan.

Bo’l2usi adib o’rta maktabni Boysunda bitirgach, 1957 yilda Toshkent Davlat universitetining filologiya fakul’tetiga o’qishga kiradi va uni 1962 yilda tugatdi. Shundan so’ng, Toshkentdagi bir qancha nashriyot va gazeta-jurnallar tahririyatida ishlaydi.

Shukur Xolmirzaev ijodga talabalik yillaridan kirib kelgan. Shu yillari uning bir qancha hikoyalari, «Oq otli» (1961), «To’lqinlar» (1962) nomli qissalari yozildi.

1965 yilda «O’n sakkizga kirmagan kim bor?» qissasi yaratildi-yu, Shukur Xolmirzaev kitobxonlarning sevimli ijodkoriga aylandi.

80-yillarga kelib adibning qator hikoyalar to’plamlari yaratildi: «Hayot abadiy» (1974), «O’2ir tosh ko’chsa» (1980), «Bodom qishda gulladi» (1986) singari to’plamlari shular jumlasidandir. Uning har bir asarida hayotiy biror muammoning badiiy talqini o’z aksini topgan. To’plamlarga kirgan «Qadimda bo’lgan ekan», «O’2ir tosh ko’chsa», «Jinlar bazmi», «Podachi», «Zov ostida adashuv», «Ko’k dengiz» kabi hikoyalarida adib har bir xarakterning ruhiy dunyosini har tomonlama ochib berishga, qahramonlarni samimiyligi, soddaligi bilan, tabiatni esa jonlantirib tasvirlashi o’zbek hikoyachiligida o’ziga xoslik kasb etadi.

Shukur Xolmirzaev katta janrdagi asarlarga qo'l urib, 1976 yilda «So'nggi bekat», 1984 yilda «Qil ko'prik» romanlarini yozib tugatdi. «Qil ko'prik» romani Buxoro mustaqilligi mavzuiga ba'ishlangan bo'lib, roman markazida Qurbon obrazi turadi.

1987 yili o'quvchilar adibning yangi «Yo'lovchi» romani, 1991 yili esa «Olabo'ji» romani bilan tanishdilar.

Adib 1987 yilda dramaturgiyaga murojaat qilib «Qora kamar» nomli drama yaratdi. Asar tarixiy mavzuda yozilgan bo'lib, inson taqdiri butun fojiaiy tomonlari bilan tahlil etilgan.

Shukur Xolmirzaev o'zbek adabiyotida Abdulla Qahhordan keyin hikoya janrida etuk asarlar yaratayotgan iste'dodli adibdir.

MAVZUGA OID TAYaNCh TUShUNChALAR:

To'lqin. 1. Qattiq chayqalib turgan suv betidagi po'rtana; dol²a.

2.Ko'chma. His-tuy²u, ichki kechinma va shu kabilarning jo'shqin harakati, to'l²anishi, ²alayoni; tu²yon.

3.ko'chma. Jamiyatdagi, hayotdagi kuchli harakat.

Olabo'ji. 1.Yosh bolalarni qo'rqitish uchun aytiladigan so'z.
(haybatli, qo'rqinchli bir maxluq ma'nosida).

2.ko'chma. Vahimali, qo'rqinchli narsa.

Kamar-kiyim ustidan belga bo²lanadigan, odatda ko'ndan qilinadigan enli tasma; qayish.

TOPShIRIQLAR:

1.Shukur Xolmirzaevning hayot yo'li haqida gapiring.

2.Adibni elga tanitgan hikoyasi qaysi?

3.Shukur Xolmirzaevning hikoyalari qanday nomlar bilan to'plam ostiga kiritilgan?

4. Shukur Xolmirzaevning roman janridagi asarlarini ayting va ularning bosh 2oyasi haqida ma'lumot bering.
5. «Olabo'ji» romanining nomlanishi asar mazmuniga qanday singdirilgan?
6. «Qora kamar» dramasiidagi bosh mavzu va obrazlari haqida gapiring?
7. Drama qachon sahnalashtirilgan va adib bu asari uchun qanday taqdirlangan?

MAVZU: O'TKIR HOSHIMOV HAYOTI VA IJODI
(1941 yilda tug'ilgan)

REJA:

1. O'tkir Hoshimovning hayot va ijod yo'li haqida.
2. O'tkir Hoshimov hikoyalari.
3. O'tkir Hoshimov qissalar ijodkori.
4. O'tkir Hoshimov iste'dodli romannavis.
5. O'tkir Hoshimov dramatik asarlari.
6. O'tkir Hoshimov ijodining 2oyaviy-badiiy qiymati.

ADABIYOTLAR:

1. O'tkir Hoshimov. Saylanma. P jildlik. T., «Sharq» nashriyoti, 1998 yil.
2. O'tkir Hoshimov. Saylanma. P jildlik. Birinchi jild .Bahor so2inchi. Qissalar. Hikoyalar. Sahna asarlari. Hajviy hikoyalar. O'ylar. T., Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001 yil.
3. O'tkir Hoshimov. Saylanma. Ikkinchi jild. Hadikli tushlar.

- Roman. Hikoyalar. Sahna asarlari. Hajviy hikoyalar. O'ylar. T., Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2002 yil.
- 4.O'tkir Hoshimov. Nur borki, soya bor. Toshkent, 1981 yil.
- 5.O'tkir Hoshimov. Bahor qaytmaydi. T., Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993 yil.
- 6.U. Normatov. Ilk tajriba saboqlari. «Etuklik» kitobida. T.. Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982 yil.
- 7.U .Normatov. Tajriba sirlari. O'z AS, 1991 yil, 8 noyabr.
- 8.U. Normatov. Faryod. («Tushda kechgan umrlar» romani haqida), O'z AS, 1992 yil, 14 avgust.
- 9.O.Sharafiddinov. El ardoqlagan adib. O'tkir Hoshimov. «Bahor qaytmaydi» kitobida. T., Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993 yil.
- 10.A.Rasulov. Ijodning sirli ibtidosi. «Yoshlik», 1991 yil, 12-son.

Zamonaviy o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan yozuvchilardan biri O'tkir Hoshimov 1941 yilning 5 avgustida Toshkent shahrida tug'ildi. Uning ajdodlari ziyoli, o'qimishli odamlar bo'lishgan. Otasi ishchi bo'lgan. Umrining ko'p qismini Toshkent to'qimachilik kombinatida ishlab o'tkazgan. O'rta maktabni tugatgach, 1959-1964 yillarda Toshkent Davlat universitetining filologiya fakul'teti jurnalistika bo'limida o'qidi. Oliy ma'lumot olgach, "Toshkent haqiqati" , "Sovet o'zbekistoni" gazetalarida ishladi. 1966 yildan "Toshkent oqshomi" gazetasi tahririyatida bo'lim mudiri, Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida bosh muharrir o'rinbosari vazifalarida ishladi. Hozirgi kunda "Sharq yulduzi" jurnalining bosh muharriridir.

O'tkir Hoshimov yoshligidan qiziquvchan, mehnatsevar yigit bo'lgan. Onasi -Hakima opa uy bekasi bo'lib, 20 yotda xushfe'l, zehni o'tkir ayol

bo'lgan. Hammaga e'tiborli, mahalla-ko'yda o'z obro'siga ega bo'lgan. Shuning uchun ham uni "Poshsho oyi" deb atashgan. O'tkir ro'z²or tebratish ishlariga ko'maklashgan. U-sinfda o'qib yurgan kezlarda she'r mashq qilgan, hikoyalar yozishga uringan.

Adibning birinchi kitobchasi 1962 yili talabalik davrida "Po'lat chavandoz" nomi bilan bosmadan chiqqan. 1963 yili esa "Sharq yulduzi" jurnalida "Cho'l havosi" degan qissasi bosiladi-yu, O'tkir Hoshimov kitobxonlarga taniladi. Bu qissa Abdulla Qahhorning e'tiboriga tushib, muallifga maktub yo'llagan.

U "Shamol esaveradi", "Qalbinga quloq sol", "Muhabbat", "Nigora", "Bahor qaytmaydi", "Dunyoning ishlari", "Odamlar nima derkin?", "Gunafsha" kabi hikoya va qissalarida hayotiy muammolarni ko'tarib chiqishga harakat qildi. Asarlarining ko'pchiligini yoshlar hayotiga ba'ishladi.

"Bahor qaytmaydi"(1970) qissasida yozuvchi iste'dodli, biroq uning qadriga etmagan, xudbin, manmanlikka berilib ketib ma'naviy inqirozga yo'liqqan kishining hayotini tahlil etib beradi. Asarning badiiy qimmati juda kattadir. Alimardon o'z iste'dodiga, hatto do'sti Anvar, sevimli rafiqasi Muqaddam, o'li Shavkatjonning taqdiriga befarqligi tufayli hayoti fojia bilan tugaydi. Alimardon qismati ko'plab shu toifa odamlarga saboq bo'lishi tabiiy.

O'tkir Hoshimov hikoya va qissalar yozib, tajriba to'plab, roman janrida asar yozishga kirishdi. 1977 yili uning birinchi romani "Nur borki, soya bor" bosilib chiqdi. Romanga 70-yillarda jamiyatda yuz berayotgan voqealar asos qilib olindi. Jamiyatda poraxo'rlik, ta'magirlik avj olgan, ayrim kishilarning tinimsiz mehnati evaziga kimlardir rohat-faro²atda yashayotgan, xalq dilidagini tiliga chiqara olmayotgan kezlarda asarni ayni shu muammolarga ba'ishlanishi ijodkor uchun katta jasorat edi.

80 yillari adibning “Mashina sotaman”, “Quyosh tarozisi”, “Xazina”, “Sirli yulduz”, “Ikki karra ikki besh” kabi kitoblari bosilib chiqdi. Xuddi shu yillari ayrim asarlari rus tiliga tarjima etilib, Moskvada bosildi.

O’tkir Hoshimovning bu davrda yaratgan asarlaridan “Dunyoning ishlari” qissasi va “Ikki eshik orasi” romanlari alohida qimmat kasb etdi.

“Dunyoning ishlari” qissasida yozuvchi o’z onasi to’2risida, urush yillarida kechgan bolalik xotiralari to’2risida hikoya qiladi. Ona obrazi orqali turmushimizdagi maishiy, ma’naviy-axloqiy muammolarni yoritib beradi. Asarning hozirgi kundagi ahamiyati juda katta. Qissa maktab darsliklariga kiritilgan bo’lib, yoshlarimizni ma’naviy jihatdan etuk shaxs bo’lib shakllanishlariga yordam beradi.

O’tkir Hoshimovning keyingi asari 1986 yilda nashr etilgan “Ikki eshik orasi” romanidir. Asarda adib urush yillari voqealari, oddiy odamlarning bu yillarda namoyon bo’lgan xislatlari fazilatlarini, vatanparvarligi va bardoshini ko’rsatadi. Yozuvchi asarda har bir obraz orqali ma’lum bir ijodiy maqsadni ko’zlagan holda xarakter yaratgan.

O’tkir Hoshimov asarlari hayotiyli tufayli ham o’z o’quvchilari salmo2ini oshirdi. Minglab kitobxonlar adib asarlarini sevib o’qishadi, navbatda yoziladigan asarlarini intiqlik bilan kutishadi.

Adib: “Shunday asar yozsangki, uni o’qigan kitobxon hamma narsani unutsa, asar qahramonlari hayoti bilan yashasa. Kitobni o’qib bo’lgan kuni aqalli bir kecha uxlo olmay to’l2anib chiqsa. Vaqti kelib o’sha kitobni yana qo’liga olganidan qaytadan hayajonga tushsa. . . Orzum shu . . . ” degan edi. Haqiqat ham, O’tkir Hoshimov o’z orzusiga etdi. Uning asarlari kitobxonlar qalbidan chuqur joy oldi.

Adibning turli yillarda yaratgan hajviy hikoyalari, sahna asarlari , o’ylari ham adabiyotimiz xazinasidir.

Drama janridagi “Xazon bo’lgan bahor” (drama), “Inson sadoqati” (ruhiy drama), “To’ylar muborak” (komediya), “Vijdon dorisi” (satirik

komediya), “Qata²on” (fojia) asarlarida ham umuminsoniy muammolar haqida fikr yuritiladi.

Dramatik asarlari mamlakatimizning ko’plab teatrlarida, qo’shni mamlakatlarda sahnalashtirilgan.

Ko’pgina asarlari ingliz, frantsuz, ispan, nemis, fors, arab, yapon, hind va boshqa xorijiy tillarga tarjima qilingan.

Mustaqillik sharofati bilan O’tkir Hoshimov ijodi yanada gurkiradi. 1990 yili “Notanish orol” nomli o’ylar kitobi, 1991 yili “Iztirob” to’plami, 1992 yili “Tushda kechgan umrlar” romani, ikki jildlik “Saylanma” kitoblari nashr etildi.

“Tushda kechgan umrlar” romani haqida: “Vatanim Istiqlolga erishmasa, bu asar dunyo yuzini ko’rmas edi”, degan edi adib. Bu asarni o’quvchi hayajonsiz o’qiy olmaydi. Urush xalq boshiga ko’p kulfat keltirdi. Asarda xalqona tilda ana shu-urush muammosi badiiy aks ettiriladi.

Olim Abdurauf Rasulovning O’tkir Hoshimov asarlari xususida aytgan quyidagi fikrlarini quvvatlaymiz: “Tushda kechgan umrlar” romani Sho’ro davrida zinhor bosilmagan bo’lardi. O’tkir Hoshimov 20-yillar adabiyotida ko’klarga ko’tarilgan Komissar-hukumat va partiyaning suyangan to’ini salbiy tip sifatida talqin etdi. Komissar xarakterida Sho’ro tuzumi tarbiyalagan barcha xususiyatlar aks etgan. . .

Xullas, “Tushda kechgan umrlar ” hayotni haqqoniy aks ettirgan roman sifatida yozuvchi ijodidla ham, o’zbek adabiyotida ham muhim o’rin egallaydi”.

O’zbekiston Qahramoni, O’zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad O’tkir Hoshimovni jasoratli yozuvchi ekanligini ta’kidlab shunday deydi: “. . . Totalitar tuzumning oqavasi bij²ib oqib turgan bir paytda “O’zbek ishi”, “Davlat siri”, “Do’stlik hurmatdan bogshlanadi” kabi o’nlab maqolalarni yozish uchun katta jasorat kerak edi. . .

Moskva matbuoti tarqatgan tuhmat va haqoratlardan sabr kosasi to'lgan O'tkir Hoshimov KPSS XXUSh se'zdi minbaridan turib ularni baralla fosh qildi. . .

Men O'tkir Hoshimovni jasoratli, qo'rqmas, haqiqatni har qanday sharoitda ham aytoladigan yozuvchi deb atadim. Bu ta'birimni ikkilanmay har qachon, har erda dadil ayta olaman. . .”

Adibning nashr etilgan kitoblarining umumiy tiraji 2 million nusxadan oshib ketgan.

O'tkir Hoshimov xizmatlari hukumatimiz tomonidan munosib bahosini olgan. 1976 yilda O'zbekiston Yoshlar mukofoti sovrindoi, 1981 yili “Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti” sovrindori, 1991 yili “O'zbekiston xalq yozuvchisi”, 1997 yilda “Mehnat shuhrati”, 2001 yilda “Buyuk xizmatlari uchun” ordenlari bilan taqdirlangan.

MAVZUGA OID TAYaNCh TUShUNChALAR:

Dunyo-koinot, olam, atrofimizni o'rab turgan butun mavjudot; er yuzi va undagi barcha odamlar.

Nur-yo²du, umuman yoru²lik, ziyo.

Soya-quyosh nuri tushmaydigan joy; ko'lanka.

Umr-tu²ilgandan to bu dunyodan o'tgungacha bo'lgan davr.

Qalb. 1.Yurak, dil.

2.ko'chma. Kishining ruhiy yoki ma'naviy dunyosi, ichki his-tuy²u-lari ; ko'ngil.

TOPShIRIQLAR:

1.O'tkir Hoshimovning tarjimai holi haqida ma'lumot bering.

2.Adibning o'qish va izlanish yillari.

3.O'tkir Hoshimovning dunyo yuzini ko'rgan ilk asari.

4. Hikoya va qissalari haqida ma'lumot bering.
5. "Dunyoning ishlari" qissasi bosh mavzusi nima va unda Ona obrazi qanday rol' o'ynaydi?
8. "Ikki eshik orasi" romanining nomlanishi bilan asar mazmuni orasida qanday bo'liqlik bor?
9. "Ikki eshik orasi" romani obrazlariga tavsif bering?
10. O'tkir Hoshimovning qanday sahna asarlari bor?
11. "Tushda kechgan umrlar" romanining bosh mavzusi nima?
Romandagi obrazlarga tavsif bering?

MAVZU: OMON MATJON HAYOTI VA IJODI
(1943 yilda tug'ilgan)

REJA:

1. Omon Matjon hayot yo'li haqida.
2. Omon Matjon she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Omon Matjon she'riy kitoblari.
4. «Ardaxiva» dramatik qissasi haqida.
5. Omon Matjon ijodining o'zbek adabiyotidagi o'rni.

ADABIYOTLAR:

1. Omon Matjon. Seni yaxshi ko'raman. Toshkent, 1980 yil.
2. Omon Matjon. Ming bir yoddu. (She'rlar, dostonlar). Toshkent, Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989 yil.
3. Omon Matjon. Odamning soyasi quyoshga tushdi. She'rlar. Toshkent, «Yozuvchi», 1991 yil.
4. Omon Matjon. Ardaxiva afsonasi. «Sharq yulduzi», 2000 yil,

2-son.

5.Omon Matjon. Ardaxiva. (Dramatik qissa. Yangi she'rlar).

**Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent,
2000 yil.**

Omon Matjon hozirgi o'zbek she'riyatida muxlislarining chuqur va samimiy muhabbatini qozongan ijodkor hisoblanadi.

Omon Matjon 1943 yilda ko'hna Xorazm viloyatining Gurlan tumanida tavallud topdi. Bo'lajak shoir yoshligidan ilmga chanqoq, tirishqoq, zehnli yigit bo'lib etishgan.

Omon Matjon o'rta maktabni bitirib, qishlo'ida montyorlik qilgan, harbiy xizmatda bo'lib qaytgan. Ijodga bo'lgan havas uni Samarqand doriifununining filologiya fakul'tetiga kirishga undadi. O'qishni 1969 yilda tugatdi. Shundan beri Toshkent shahrida turli lavozimlarda ishlab kelmoqda.

Shoirning 1970 yilda «Ochiq derazalar» she'riy kitobi nashr etildi. To'plamdagi she'rlar Omon Matjonning chuqur mulohazali, atrofdagi voqealarga qiziquvchan shoir ekanligidan darak berardi. To'plamga kirgan «Bobur», «Afrosiyob», «Go'dak qadam bosdi» kabi she'rlarida shoir kitobxonni sergaklikka chaqiradi.

Omon Matjonning 1973 yilda «Karvon qo'n'iro'i», 1977 yilda «Quyosh soati», «Yonayotgan daraxt» she'riy kitoblari e'lon qilindi. She'rlarida shoirninng yillar davomida fikrlari teranlashib, qalami o'tkirlashib borayotganini sezish mumkin. Omon Matjon barcha she'rlarida kitobxon ruhiy holatiga kirib boradigan, badanini jimirlatib, chuqur xayolot olamiga olib kiradigan qandaydir kuch bor.

1979 yili Omon Matjonning navbatdagi «Yarador chaqmoq» deb nomlangan yangi she'riy to'plami chop etildi.

Shoir 80-yillarda rus shoiri Evgeniy Evtushenko bilan ancha yaqin, do'stona munosabatda bo'lib qolgan. Buning natijasida Omon Matjon Evtushenkoning «Santyago kabutari» poemasini, ayrim she'rlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Hatto Evgeniy Evtushenko stsenariysi asosida suratga olingan «Bolalar bo'chasi» badiiy fil'mida o'zbek askarining epizodik rolini ham o'ynagan.

Omon Matjonning jahonga mashhur rus shoiri bilan yaqinligi 1986 yili Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida chop etilgan «Gaplashadigan vaqtlar» nomli she'riy qissasida ham yaqqol sezilib turibdi.

Shoir ijodi uchun xos bo'lgan xususiyatlardan eng asosiysi-voqeaband asarlar yozishdir. Bu fikrni uning 1979 yilda chop etilgan «Haqqush qichqiri'i» she'riy to'plamidagi 39 ta voqeaband afsonasi ham tasdiqlaydi.

Omon Matjonning 1984 yilda «Seni yaxshi ko'raman», «Daraxtlar va giyohlar kitobi», 1989 yilda «Ming bir yo'ldu», 1990 yili esa «O'rtamizda birgina olma» degan kitoblari o'quvchilar hukmiga havola etildi.

To'plamlarga kirgan ayrim she'rlariga bir e'tibor bering-a?:

O'rtamizda birgina olma –

Olam ichra yumaloq ilinj.

O'rtamizda birgina olma –

Balki nam u yo balki sevinch.

... O'rtamizda birgina olma,

Gard tegmagan, biram pokiza.

Hozircha u rangin bir havas,

Lab tegsa boshlanar mo'jiza..

Quyidagi she'riy kitoblari kiritilgan to'rtliklarida esa Omon Matjon katta mazmunni qisqa satrlarga terib, o'z ijod tamoyiliga xulosa qilayotganini, xalq dardi bilan yashayotganini his qilish mumkin:

**Yashash, bu- orzular qanotin kermoq,
Yashash, bu- muhabbat gullarin termog.
Yashash, bu- umrning gulgin damlarin
El uchun yashamoq , el uchun bermoq.**

*** * ***

**Shu yil yoz, To'rtko'lga qayiqda o'tib,
Dilim to'lqinlandi, ko'zim yoshlandi.
Amudaryo suvi sho'r edi, taxir-
Hovuchimdan**

ko'z yoshidek tashladim.

*** * ***

**Ko'kdan erga bir ne tutash ko'rinar,
Umr -o'z burchingni o'tash ko'rinar.
«Avlodlar almashar !»-degan gap bekor,
Bu -har kimni bir-bir sinash ko'rinar.**

Omon Matjon «Avesto» kitobining yaratilganiga 2700 yil to'lishi munosabati bilan asar haqida o'ziga xos yangi bir shaklda «Ardaxiva» nomli dramatik qissa yaratdi. Asar yaqinda (2000 yil) «Sharq yulduzi » jurnalida bosildi va shu yili alohida kitob holida chop etildi.

«Ushbu voqea tariximizning Islomgacha bir necha ming yil burungi davrida bo'lib o'tadi»- deydi, adib asarning boshlanishida va fikrini davom ettirib:

«Qabila-bo'luk, hali goh onaboshchilik, o'tyoqarlik, goh hayvonot, tabiat unsur-voqealariga e'tiqod urflari aralash, kishining joni goh chigirtkacha bo'lmay, goh tabiat kuchlaridan qo'rquv-vahm sharoitida yashagan odamlar, baribir yoru²lik, erk orzulariga imkon, muqim makon istaydilar».

Adib asar voqealarini qadim tarixda bo'lib o'tgan, deb so'zlaydi va shunday sharoitda ham odamlar erk uchun intilayotganliklarini ta'kidlayapdi. Bu bilan 70 yillik mustabid sho'ro tuzumi davridagi xalqimiz hayoti nazarda tutilmayotganmikin? . . .

Mustaqillik sharofati bilan ushbu asar adabiyotimizda katta voqea bo'ldi.

Omon Matjonning xalq hayotidan olib yozilgan «Erkin havolarda», «Cho'lpon yo²dusi», «Qush yo'li» asarlari, yaqinda «Sharq yulduzi» jurnalida chop etilgan. «Xoja Ahror ziyoratgohlari» nomli yana bir yangi asari ham badiiy jihatdan yuksak asarlardandir.

Omon Matjon Mustaqillik yillarida «Yoshlik» jurnali bosh muharriri bo'ldi, «Cho'lpon» nashriyotiga direktorlik qildi , 2002 yildan buyon respublika bolalar nashri «Gulxan» jurnaliga bosh muharrirlik qilib kelmoqda. Shoir o'z ijodiga munosib «O'zbekiston xalq shoiri» unvoni bilan taqdirlandi.

MAVZUGA OID TAYaNCh TUShUNChALAR:

Yo²du- yorituvchi manbadan taraluvchi yoru²lik, nur, yorqin.

Haqqush- uzun oyoqli qushlar turkumining qarqaralar oilasiga kiruvchi parranda.

Ardaxiva- dramatik qissa nomi.

Asarda Tangri Ormuzd o'z farishta qizlariga butun olamni kuzatib turishni topshirgan.

Farishta Ardaxiva zimmasiga bizning erimiz, ikki daryo orali²idagi sarhadlar tushgan.

Ardaxiva- bizning erlarimiz holidan qarab turuvchi farishta nomi.

TOPShIRIQLAR:

- 1.Omon Matjon she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
- 2.Omon Matjonning ilk she'riy kitoblari qanday nomlangan?
- 3.Shoirning qanday tarixiy mavzudagi she'rlari bor va ular kimlarga ba'ishlab yozilgan?
- 4.Omon Matjonning jahonga mashhur rus shoiri Evgeniy Evtushenko bilan munosabati xususida nimalarni bilasiz?
5. «Ardaxiva» asarining yaratilishi va adibning ijodiy niyati to'risida gapiring.
- 6.Omon Matjonning doston janridagi asarlari qaysilar?
- 7.Shoirning o'zbek adabiyotidagi o'rni haqida nima deya olasiz?

MAVZU: RAUF PARFI HAYOTI VA IJODI
(1943 yilda tug'ilgan)

REJA :

- 1.Rauf Parfi tarjimai holiga bir nazar.
- 2.Rauf Parfi she'riyatida inson qalbi kechinmalarining teran aks etishi.
- 3.Shoirning tarjimonlik faoliyati.
- 4.Rauf Parfi she'riyatining ahamiyati.

O'zbek she'riyatiga o'ziga xos lirik uslub bilan kirib kelgan ijodkor Rauf Parfidir.

Rauf Parfi 1943 yil Toshkent viloyati Yangiyo'l tumanining Sho'ralisoy qishlo'ida tug'ilgan. Uning ota-onasi far'onalik bo'lib, zamona zayliga ko'ra shu erga kelib qolishgan. Otasi Parfi Muhammad Hamroqul Tursunqulov, Abdurahmon Vodiliy singari zamonasining ziyolilari bilan

do'st bo'lgani uchun Rauf Parfi bolaligidanoq, birining boy kutubxonasidan, ikkinchisining she'riy ijodidan bahramand bo'lgan.

Shoirning ilk she'riy to'plami 1968 yili «Karvon yo'li» nomi bilan chop etilgan. Ijodiy izlanishlari natijasida 1970 yili «Aks sado», 1973 yili «Tasvir», 1975 yili «Xotirot» to'plamlari kitobxonlarga taqdim etildi. Shundan boshlab, shoir uslubiga xos she'riyat chashmasidan o'quvchilar bahramand bo'lib kelishmoqda.

Rauf Parfi o'zbek she'riyatiga boshqa ijodkorlarga o'xshamagan, o'ziga xos lirik uslub bilan kirib keldi. Uning lirikasida inson ruhining nafis va teran istioraviy tahlilini ko'rishimiz mumkin.

Rauf Parfining o'zbek she'riyatiga kirib kelishi ajoyib bir hodisadir. Buni 1986 yilda chop etilgan «Sabr daraxti» to'plamiga kirgan she'rlari tahlilida ham ko'rishimiz mumkin.

O'zbek she'riyatiga-uchlik (musallas) janridagi she'r usuli XX asrda kirib keldi. Qisqa vaqt ichida bu janr katta e'tibor qozondi va uchlikka asoslangan noyob asarlar dunyoga keldi. Uning go'zal namunalarini o'zbek she'riyatida Rauf Parfi ijodida ko'rishimiz mumkin:

Er o'z o'qidan ayrilar, inon
Inon, osmonidan ayrilar quyosh,
Agar biz ayrilsak.

* * *

Men ko'zlaringga qarayman
Sen o'zgalarga
Kimning ko'zlaridan izlaysan meni?.

Bu she'rni o'qigan kitobxon yana takror-takror o'qigisi keladi. Qayta-qayta o'qib esa bir olam ma'noni, mazmunni qalbiga jo qiladi.

Bizningcha, musallas orqali muhabbatning o'tli tuy²usini bundan-da, yorqinroq aks ettirib berish mumkin emas.

Rauf Parfining to'plamlarga kirgan «Turkiston yodi», «Vatan», «V'etnam haqida qo'shiq», «Oybek xotirasiga» kabi she'rlarida umuminsoniy ²oyalarni ilgari surgan.

Shoir 1995 yili «Abdurauf Fitrat» degan muvashshah-sonetini e'lon qildi. She'rda Fitrat obrazini yaratish orqali Turkiston ²oyasini-Mustaqillik ²oyasini ilgari suradi.

Rauf Parfi tarjima sohasida ham samarali mehnat qildi. Jumladan, Bayronning «Manfred», Nozim Hikmatning «Inson manzaralari» kitobini, A.Tvardovskiyning «Xotira huquqi» asarini va Pablo Neruda, Karlo Kaladze, Gevorg Emin, Voqif Samad she'rlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Xullas, Rauf Parfi XX asr o'zbek she'riyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan ijodkorlarimizdan biridir.

MAVZUGA OID TAYaNCh TUShUNChALAR:

Tasvir. 1. Biror narsaning o'yma, quyma yoki chizma shakli; rasm surat.

2.Narsa, voqe-hodisa va shu kabilarning badiiy ifodasi.

Sukunat-churq etgan tovush yo'qligi; jimjitlik, sokinlik.

TOPShIRIQLAR:

- 1.Rauf Parfining she'riyatining o'ziga xosligi nimada?
- 2.Shoir tarjimai holi haqida nimalarni bilasiz?
- 3.O'zbek adabiyotida Rauf Parfi she'riyatiga nisbatan «ruh rassomi» jumlasining qo'llanilishini izohlab bering.
- 4.Rauf Parfi jahon adabiyotidan qanday tarjimalar qilgan?

MAVZU: TOGAY MUROD HAYOTI VA IJODI.
(1948-2003)

REJA:

- 1.Toʻlay Murod ijodining oʻzbek adabiyoti rivojidagi oʻrni.
- 2.Toʻlay Murod tarjimai holi.
- 3.Toʻlay Murod qissalari.
- 4.Toʻlay Murod tarjimalari.
5. «Otamdan qolgan dalalar», «Ot kishnagan oqshom» asarlari haqida maʼlumot.

ADABIYOTLAR:

- 1.Toʻlay Murod. Otamdan qolgan dalalar. T., «Sharq» nashriyoti, 1994 yil.
- 2.Toʻlay Murod. Ot kishnagan oqshom. T., «Sharq» nashriyoti, 1994 yil.
- 3.S.Mirvaliev. Oʻzbek adiblari. T., «Fan» nashriyoti, 1993 yil.
- 4.Said Ahmad. Toʻlay Murod qoʻshiqlari. «Ot kishnagan oqshom»ga kirish soʻzi, «Sharq» nashriyoti. T., 1994 yil,3-bet.

Toʻlay Murod XX asr oʻzbek adabiyotida biror ijodkorda hali uchramagan ijod uslubi, ifoda ohangi bilan kirib kelgan yuksak isteʼdod sohibidir. Adib Said Ahmad: «Nazarimda, Toʻlay Murod qissa aytmaydi, nazarimda, bor ovozi bilan qoʻshiq aytadi. Bu qoʻshiqda avj pardalar bor, nolishlar bor, savt bor» deganlarida faqat Toʻlay Murodgagina xos, yangi oʻzbek nasri mahsuli sifatida yuzaga kelgan ijodni nazarda tutgan edilar.

Taxallusi Toʻay murod, asl ism-sharifi Toʻaymurod Mengnorov 1948 yilda Surxondaryo viloyati, Denov tumaniga qarashli Xoʻjasoat qishloʻida tugʻilgan. Keyinchalik Toshkentga kelib universitetning jurnalistika fakulʼtetini tamomlagan. Oliy maʼlumot olgach, qator gazeta-jurnallar tahririyatida ishlagan. Jumladan, 1972-1976 yillarda Respublika radiosi «Vatandoshlar» tahririyatida muharrir, 1976-1978 yillarda «Oʻzbekiston fizkulʼturachisi» gazetasida tarjimon, 1982-1984 yillarda «Fan va turmush» jurnalida muharrir kabi vazifalarda faoliyat yuritgan. 1985-1987 yillarda Moskvadagi Jahon adabiyoti institutida tahsil olgan.

Toʻay Murodning «Sharq yulduzi» jurnalida (1976 yilda) «Yulduzlar mangu yonadi» qissasi bosilib chiqdi-yu, uni butun el tanidi. Asar yilning eng yaxshi qissasi deb tan olindi. Qissadan olingan mana bu parchaga eʼtibor bering:

«Boʻri uyʻonib tevarakka alangladi.

Tong otdi.

Hoʻkizlar mudrab-mudrab, vazmin-vazmin kavsh qaytardi.

Toʻray hangi yaʻiriga qoʻnib chuldiradi.

Fayziyob ellar eldi.

Boʻri ertalabki taʼtildan keyin uch hoʻkizni bir-biriga boʻynidan matab; galagovga qoʻshdi. Oyoqlariga choriq kiydi. Tolxivichni olib, xirmonga kirdi. . . . Boʻri tishlarini-tishlariga qattiq bosdi.

Davron bilan hoʻkizlar saʼrisiga soʻqdi. Bor ovozi bilan qoʻshiq boshladi:

Yoʻrtib-yoʻrtib haydagin-a, mayda-yo, mayda-yo,

Don somondan arisin-a, mayda-yo, mayda-yo

Ayni sahar boʻlganda-yo, mayda-yo,

Xoʻjayi Hizir dorisin-a, mayda-yo, mayda-yo. . .»

Shu kichik matnning o'zidanoq xalqona ohang, so'z va jumalardagi takroriylik-To'ay Murodning o'ziga xos ifoda usulini ko'rsatib turibdi.

To'ay Murodning birin-ketin qissalari chop etila boshladi. 1979 yilda «Ot kishnagan oqshom», 1980 yilda «Oydinda yurgan odamlar», 1985 yilda «Momo er qo'shi'i» qissalari yaratildi. Barcha qissalarda To'ay Murod tu'ilib o'sgan Surxon vohasi, Xo'jasoat qishlo'i Denov tumani xalqi hayoti tasvirlanadi. Bu qissalari uchun adib Respublika yozuvchilar uyushmasi Oybek nomidagi mukofoti bilan taqdirlandi.

To'ay Murod 1986-1991 yillarda «Otamdan qolgan dalalar» romani ustida ishladi, asar 1993 yili yozilib tugatildi.

1994 yili istiqlol davri o'zbek adabiyotining dastlabki sara asari sifatida Abdulla Qodiriy nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

To'ay Murod roman va qissalari mavzusi, badiiyati, qalamga olgan muammolari, asar qahramonlari tasviri jihatidan ham o'ziga xosdir.

Surxon vohasi, qolaversa, xalqimizning azaliy udumlari, mo''tabar an'analari, zahmatkash, sofdil, sodda odamlari, tiniq buloqlari-yu, so'lim bo'lari, bepoyon qir-adirlari, yaylovlari butunicha To'ay Murod ijodiga xos tabiiylik asosida talqin etilgan.

«Yulduzlar mangu yonadi» qissasida Bo'ri polvon, Maksim, Ismoil polvonlar misolida xalq kurashchi-polvonlari, «Ot kishnagan oqshom» qissasida chavandoz-uloqchilar hayoti haqida bahs yuritiladi. To'ay Murod qaysi voqeani tasvirlamasin, uni shunchaki tashqaridan turib kuzatib, baholamaydi.

Balki butun borli'i bilan o'zi qalamga olayotgan voqea-hodisalar ichiga kirib ketadi, polvonlar, chavandozlar bilan birgalikda harakatlanadi.

To'ay Murod «Otamdan qolgan dalalar» romanining yaratilishi haqida shunday yozgan edi:

«. . . Bo'yim paxtada o'sdi. Aqlim paxtada kirdi. Savodim paxtada chiqdi.

Ammo romanni boshlab. . . paxta nima ekanini bilmasligimni anglab qoldim.

. . . Men endi necha o'nlab paxtachilik darsliklarini o'qidim. Necha o'nlab qishloq xo'jalik kitoblarini o'qidim.

. . . Men bo'lajak . . . Dehqonqul bilan yuzma-yuz bo'ldim.

Men bo'lajak. . . Dehqonqul dalalarini joyim etdim.

Dehqonqul qanday kiyimda bo'lsa-men ham shunday kiyinib oldim.

Dehqonlar o'tirsa-o'tirdim, dehqonlar tursa-turdim. . .»

To'2ay Murod bu asarni yozishga kirishar ekan, o'zining hayot haqidagi qarashlari, tasavvur va xulosalarini tanqidiy taftishdan o'tkazadi. Xalq hayotiga, dehqonlarning turmush tarziga kirib boradi.

Asarda yozuvchi ijodiy niyatini ro'yobga chiqaruvchi bosh qahramon-Dehqonqul obrazidir. U qizil imperiya tuzumida dunyoqarashi shakllangan, sho'rolar siyosati tarbiyasini olgan shaxs.

Dehqonqul jon-dili bilan ana shu hokimiyatga xizmat qiladi. U faqatgina tunu kun mehnat qilishni biladi. Dehqonchilikning ustasi, bilimdoni. O'zi, ayoli va bolalarini hech o'ylamay, yo'2in-sochinlarga qaramasdan, har yili mo'l hosil olishga harakat qiladi.

Adib Dehqonqul obrazi orqali o'zbek xalqining, o'zbek dehqonining o'ziga xos haykalini yaratib berdi.

To'2ay Murod badiiy tarjima bilan ham shu'2ullangan. Jumladan, J.Londonning «Boyning qizi» dramasi va qator hikoyalarini, E.Seton-Tompsonning hayvonotlar olami haqidagi mashhur «Yovvoyi yo'r'a» asarini o'zbek tiliga mahorat bilan o'girdi.

Xulosa qilib aytganda, To'2ay Murod o'zbek adabiyotiga xalq o'2zaki ijodi janrlaridan-dostonlardagi nasriy ifoda, klassik adabiyotimizdagi saj san'ati, so'zlarni o'ziga xos takror qo'llash, xalq tilining jozibali ko'rinishlarini qayta kashf etdi.

To'2ay Murodning o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'rni bor.

MAVZUGA OID TAYaNCh TUShUNChALAR:

Sof. 1. Be²ubor, toza musaffo.

2.Boshqa narsa aralashmagan; asil, toza.

3.O'zga elementlardan xoli; toza

4.ko'chma. Do² tushmagan, har qanday ayb, gunoh, nuqsondan xoli; toza.

Milliy. 1. Millatga oid; bir millatdagi kishilarga xos bo'lgan.

2.Biror millatning, xalqning o'ziga xos bo'lgan, uning xususiyatlarini ifodalovchi.

3.Biror mamlakatga, davlat va uning aholisiga oid.

Jilo. 1.Silliq yoki sayqallangan, pardoziqlangan sirtning yaltirashi.

2.ko'chma. Husn, ko'rk.

Dehqon. Asosiy kasbi ekin ekishdan, dehqonchilikdan iborat bo'lgan kishi.

TOPSHIRIQLAR:

1.To²ay Murodning bolalik va o'smirlik yillari qaysi viloyatda o'tgan?

2.To²ay Murodning ijod maydoniga kirib kelishi haqida nimalarni bilasiz?

3.Adibning ilk asari qaysi va u nechanchi yilda e'lon qilingan?

4.To²ay Murod tarjima bilan shu²ullanganmi?

5.To²ay Murod qaysi asarlari uchun Oybek nomidagi mukofot bilan taqdirlangan?

6.To²ay Murodning 1994 yilda istiqlol davri o'zbek adabiyotining ilk etuk namunasi sifatida Abdulla Qodiriy nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'lgan asari?

7. «Otamdan qolgan dalalar» romanini yaratishdan ko'zlangan

adibning maqsadi?

**MAVZU: MUHAMMAD YUSUF HAYOTI VA IJODI
(1954-2002)**

R E J A:

1. Shoirning tarjimai holiga bir nazar.
2. Muhammad Yusuf she'rlaridagi samimiylik va omma ruhiga yaqinlik.
3. She'riy to'plamlari haqida ma'lumot.
4. Muhammad Yusuf ijodining o'zbek adabiyotidagi o'rni.

ADABIYOTLAR :

1. Saylanma. She'rlar. Dostonlar. Shoir haqidagi xotiralar.. T., «Sharq» nashriyoti .2004 yil.
2. Muhammad Yusuf. Tanish teraklar. T., 1985 y.
3. Muhammad Yusuf. Bevafo ko'p ekan. T., 1988 y.
4. U. Hamdamov. Davr ruhining she'riyatida aks etishi. «O'zbek tili va adabiyoti», 2001 y, 1-son.
5. Sabot O'runova. Istiqbol va adabiy qahramon. «O'zbek tili va adabiyoti», 2002 y, 1-son.
6. H. Xudoyberdieva. Bir arsloni o'tdi o'zbekning. . . «Ovoza» gazetasi, 2004 yil, 11-mart, 3-bet.

Diltortar she'rlari ohangrabo qo'shiqlarga aylanib, har bir o'zbek xonadoniga kirib borgan lirik shoir Muhammad Yusuf 1954 yilning 26 aprelida Andijon viloyatining Marhamat tumaniga qarashli Qovunchi qishlog'ida dehqon oilasida tu'zilgan. O'rta maktabni shu erda tugatgach, respublika Rus tili va adabiyoti institutiga o'qishga kirib, uni 1978 yilda tamomlagan.

Ijodga havas uni oliy ma'lumot olgach Toshkentda qolishga undadi. 1978-1980 yillarda Kitobsevarlar respublika jamiyatida, 1980-1986 yillarda «Toshkent oqshomi» gazetasida, 1986-1992 yillarda Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida ishladi, 1995-1996 yillarda O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida o'qidi, 1997 yildan umrining oxiriga qadar O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinbosari lavozimida faoliyat ko'rsatdi.

Badiiy ijod bilan talabalik davridan shu²ullana boshlagan, ammo she'rga²oyat mas'uliyat va talabchanlik bilan munosabatda bo'ladigan Muhammad Yusuf ilk to'plami – «Tanish teraklar»ni 1985 yilda nashr ettirdi. Birinchi kitobiyoq uni elga tanitdi, to'plamdagi she'rlardan dunyoga kelgan diltortar qo'shiqlar esa uni mashhur qildi. Iqtidorli shoirning «Bulbulga bir gapim bor», «Uyqudagi qiz», «Halima enam allalari», «Ishq kemasi», «Ko'nglimda bir yor», «Bevafo ko'p ekan», «Yol²onchi yor», «Erka kiyik», «Osmonimga olib ketaman» kabi ko'plab she'riy kitoblari bosilib chiqqan.

Respublikamizdagi eng yosh xalq shoiri Muhammad Yusuf edi. U 1998 yilda 44 yoshida «O'zbekiston xalq shoiri» unvoniga sazovor bo'lgan.

«Badiiy asar tili go'zalligining aniq bir sharti bor: tasvir aniq va ravon bo'lishi, ya'ni tasvir etilayotgan xulq, harakat yoki manzara til tufayli o'quvchilarning ko'z oldida aniq va yorqin namoyon bo'lish zarur». Shunga ko'ra Muhammad Yusuf she'rlarining tili ravon, aniq, sodda, badiiy tasvir vositalarining me'yorida qo'llanilishi bilan ajralib turadi:

Mayli-da kimgadir yoqsa, yoqmasa,

Ularga qo'shilib yi²lasharmidik.

Biz baxtli bo'lamiz,

Xudo xohlasa.

Xudo xohlamasa,

Uchrasharmidik. . .

Bu misralardan o'quvchi shoir nima demoqchiligini tezda tushuna oladi.

Shoir she'rlaridagi etakchi xususiyatlardan biri-musiqiyligidir.Shuning uchun ham M.Yusuf she'rlari ko'plab san'atkorlarimiz tomonidan ashula qilib,musiqaga solinib kelmoqda:

O'tar qancha yillar to'zoni,
Yulduzlar ko'z yoshi –samoni.
O'tar inson yaxshi-yomoni,
Mehr qolur,muhabbat qolur.
. . .Nima deysan,ey 2ayur inson?
Giybatlaring qildi meni qon.
Sen ham bir kun o'tursan,inon,
Mehr qolur,muhabbat qolur!

Muhammad Yusufning she'rlari minglab kitobxonlar qalbidan joy olgan.Aytishlaricha, uning yozgan she'rlarini hali siyohi qurimasdan,talashib bastakorlar kuyga solishgan vaqtlar ham bo'lgan.Buning sababi,albatta,shoir she'rlarining tinglovchi yuragiga yaqinligi, uni tinglab dardlariga darmon topishi emasmi? Ayniqsa,shoirning el-yurtni,Ona Vatanni,sevimli yorni ardoqlash mavzuiga ba2ishlangan she'rlari naqadar chuqur ma'noga ega:

Ko'ringanni duolar
Qilar bizda momolar.
Ganimga ham omonlik
Tilar bizda momolar.
Momolar har joyda bor,
Bizda bori qayda bor.
Bizning bo'ston qayda bor,
Shohimardon qayda bor,

So'lim Surxon qayda bor,
Samarqand non qayda bor-a,
O'zbekiston qayda bor?

Afsuski, beshavqat o'lim sevimli shoirimizni oramizdan bevaqt olib ketdi. Kechagiday yodimizda vafotlaridan 2-3 oy burun Toshkent viloyat Davlat pedagogika instituti talabalari bilan uchrashuv o'tkazgan, qator savollarga javob berib, she'rlaridan o'qib bergan edi. Kechaning qiziqarli taassurotlariyu, shoirning sermazmun suhbatlari xotiramizda abadiy muhrlanib qolishi tabiiy.

Muhammad Yusufning tasodifiy vafoti munosabati bilan shoir Mahmud Toir «Hofizlarning bir kunda sochi oqardi» deb iztirob chekkani bejiz emas.

Xulosa o'rnida sevimli xalq shoirasi Halima Xudoyberdievaning quyidagi fikrlarini keltirmoqchimiz. Bu fikrni umrning, har bir daqiqaning ²animatligi haqidagi chaqiriq desak adashmaymiz. «Tiriklar shu, har doim yonidagi odamni yonida mangu yuradi, deb o'ylaydi shekilli. O'zi ham mangu yuradiganday go'yo. . . Fojiamiz ham shunda.

Bir arsloni o'tdi, O'zbekning,
Ohi ko'kka etdi O'zbekning,
Quyosh yi²la, osmon aza tut,
Muhammadi ketdi O'zbekning.
Baland ketdi, shoniga ketdi,
Jannatning ayvoniga ketdi.
Turk yukini elkalashay deb,
Yassaviyning yoniga ketdi. . .»

MAVZUGA OID TAYaNCh TUShUNChALAR:

Mehr 1. Insonning o'z tu²ishganlariga, yaqin kishilariga
va umuman odamga bo'lgan samimiy muhabbati.

2.Shafqat rahmdillik.

Bevafo –yorga,do'stga,yaqin kishilariga sadoqatsizlik,o'z ahd-paymonini muqaddas tutmaslik,so'zda,va'dada qat'iy turmaslik.

TOPSHIRIQLAR:

- 1.Muhammad Yusuf hayoti xususida qanday ma'lumotlarni bilasiz?
- 2.Shoir she'riy to'plamlari haqida gapiring.
- 3.Uning she'rlarini xalqimizning sevib o'qishini sabablari nimada?
- 4.Muhammad Yusufning birorta she'rini yoddan aytib bering va tahlil eting.
- 5.Muhammad Yusuf tavalludining 50 yilligi munosabati bilan Respublikamiz miqyosida qanday tadbirlar o'tkazilishi mo'ljallangan?